




# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI:  
2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN SAMOLYOT



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQT.uz  
WWW.CONFERENCES.UZ



APREL  
№5 1

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
10-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-10**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 51-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 64 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

|  |    |
|--|----|
| <b>1. Qo'chqarov Mirzavali, Oripov Xakimjon</b>  |    |
| BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH .....   | 8  |
| <b>2. Xakimova Marxabo O'raqovna, Normurodova Muxlisa Holturdi qizi</b>  |    |
| BOLANI O'YIN FAOLIYATIDA PEDAGOGNING ROLI.....   | 10 |
| <b>3. Oripov Xakimjon, Qo'chqarov Mirzavali</b>  |    |
| SAVOD O'RGATISH DAVRIDA YOZUVGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI .....  | 11 |
| <b>4. Tursunov Abduraim Ramazanovich, Tursunova Dilbar Abduraimovna</b>  |    |
| O'ZBEK MUSIQASIDA BASTAKORLIK VA KOMPOZITORLIK USLUBLARI HAQIDA NAZARIY QARASHLAR .....  | 13 |
| <b>5. Xakimova Marxabo O'raqovna</b>   |    |
| TARBIYANING JAMYATDAGAI O'RNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI .....   | 15 |
| <b>6. Raимова Умида Баҳодир қизи</b>   |    |
| ЎҚИТУВЧИНинг КАСБИЙ ФАОЛИЯТИДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН СТРЕССЛИ КЕЧИНМАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....                     | 18 |
| <b>7. Aliboyeva Sevara Nizomiddinovna</b>  |    |
| BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGIVA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....         | 21 |
| <b>8. Bazarbaeva Zamira Djumabaevna</b>  |    |
| ULIWMA BILIM BERIW MEKTEPLERINDE KELESHEK ÁWLADTIÝ RAWAJLANIWINDA "SCRATCH PROGRAMMALASTIRIW ORTALÍGÝ"nda OQITIWDI ÚYRETIW ..... | 23 |
| <b>9. Madrimova Saida Ikramovna, Ibadullayeva Guli Ibadullayevna</b>   |    |
| "MEN"-OBRAZI VA O'ZINI –O'ZI BAHOLASH.....   | 26 |
| <b>10. Ismoilova Dilorom Muxtorjonovna</b>   |    |
| OILADA FARZAND TARBIYASI.....  | 28 |
| <b>10. Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich</b>   |    |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MILLIYIFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI .....  | 30 |
| <b>11. Madrimova Saida Ikramovna, Taxirova Sabohat Rustamovna</b>  |    |
| PSIXOLOGIYANING FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI.....  | 32 |
| <b>12. Мирзалиева Диляфуза Саминовна, Бахромова Нафосат</b>  |    |
| ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ .....  | 34 |
| <b>13. Nazarov Tohir Toshpo'lotovich, Mahmudov Shahzod To'lqin o'g'li</b>  |    |
| CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING DIDAKTIK JARAYONLARINI LOYIHALASHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....     | 36 |
| <b>14. O'sarova Saltanat Utayevna</b>  |    |
| BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION USULLAR .....   | 38 |
| <b>15. Qalandarova Nargiza Xamroyevana, Razzoqova Iroda Jumanazarovana</b>   |    |
| O'SMIRLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGNING RO'LI.....                            | 41 |
| <b>16. Qalandarova Nargiza Xamroyevana, Razzoqova Iroda Jumanazarovana</b>   |    |
| BOLANI BILIM OLISHGA RUHLANTIRING.....   | 43 |
| <b>17. Xudjamkulova Shaxnoza Mamatqobilovna</b>  |    |
| BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI SAMARALI O'QITISH .....                                       | 45 |
| <b>18. Shakhida Yusupova, Khayrieva Ma'mura</b>  |    |
| FEATURES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN TECHNICAL COLLEGES AND VOCATIONAL SCHOOLS .....                                       | 47 |

## **МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT**

---

|   |    |
|---|----|
| <b>19. Абдуллаева Шоҳидахон Давронбековна</b>   |    |
| ЎҚИТУВЧИНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ .....   | 49 |
| <b>20. Ахмедов Азизбек Баходирович</b>  |    |
| БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВНИНГ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТИ ..... | 51 |
| <b>21. Ахмедов Беҳзод Мадаминович</b>   |    |
| МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ВАТАНГА МУҲАББАТ ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЁШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....                      | 54 |
| <b>22. Сагатов Иброҳим Рауфович</b>   |    |
| ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАХСУС ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....                             | 57 |
| <b>23. Maxmudov Abrorjon Zakirovich</b>   |    |
| RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI PEDAGOGIK JARAYONDA QO'LLASH.....  | 59 |
| <b>24. Alimova Dilnoza, Nurmatov Yorqin</b>   |    |
| BOLALARDА DEPRESSIYA HOLATINING KORREKSIYA QILISH METODLARI.....  | 61 |



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Qo'chqarov Mirzavali, Oripov Xakimjon**  
Namangan viloyati PYAMO'MM o'qituvchilari.  
Tel: 93-403-63-43

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich ta'lilda o'yin bola hayotida tarbiya vositasi, ta'lim berish, metod vazifasini, shuningdek, bolalarni o'qitish usullari vazifasini bajarishi keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'yin, metod, tarbiya vositasi, kollektiv ish, qobilyat.

O'yin tarbiya vositasi. O'yinni pedagogik jarayon strikturasida analiz qilish natijasida shu narsa aniqlandiki, o'yin faqat psixologik hodisa bo'lib qolmay, balki pedagogik hodisa hamdir.

Biroq o'yindan tarbiya masalalarini hal qilish uchun ongli ravishda foydalanilgandagina u pedagogik hodisa shaklini oladi.

Pedagogik vazifa sifatida o'yin turli vazifalarni: tarbiya vositasi, ta'lim berish, metod vazifasini, shuningdek, bolalarni o'qitish usullari vazifasini bajaradi.

Didaktik o'yinlarning asosiy xususiyatlari shundaki, bularda to'g'ridan-to'g'ri ta'limga aloqador masalalar o'yin qoidalari niqobi ostida o'tadi.

Bola o'ynar ekan, o'rganaman deb o'ylamaydi, lekin o'yin jarayonida u nimagadir o'rganadi. Ta'lim bu yerda ataylabdan o'tilmaydi. Didaktik o'yinlarning qimmati shundaki, u kichkina bolalarning imkoniyatlariga javob beradi va ularning energiya sarflashlarini muvozanatlashtiradi. U ma'lum darajada ta'lim mazmunini qabul qilish va o'qitishni niqoblash kabi muhim xususiyatga egadir. Bola buni hayolga keltirmagan holda o'rganadi. SHuni ham aytish keraki, didaktik o'yinlarda, shaxsnинг tormozlanishi qobilyati, diqqatini o'sishi, kuzatuvchanlik kabi xususiyatlarining o'sishiga qaramay, bolalarning bevosita o'quv faoliyatini shakllantiradi.

O'yinlarda kollektiv ish ongli intizomni tarbiyalash uchun kerak bo'lgan do'stona birodarlik hissiyoti, to'g'rilik, haqiqatgo'ylik va boshqa hislatlar rivojlanadi. Jamoa o'yinlarida astoydil maqsadga intiladigan va boshqalarni yetaklaydigan tashkilotchi bolalar, yo'lboshi bolalar tarbiyalanadi.

Bolalar qanchalik yosh bo'lsa, o'yin ularni faoliyatida shunchalik katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni tarbiyalashda o'yining ahamiyati yetarlicha baho bermaydigan o'qituvchi o'z ishida katta yutuqlarga erisha olmaydi.

Darhaqiqat, o'yin bolaga orom, qoniqish baxsh etadi. Masalan, kompyuter hozirgi kunda ta'lim tizimida keng o'rinni egallaganini bilamiz. Bu bola faoliyatida o'z aksini topmoqda. Qolaversa bolalar sayr-sayohatlar tashkil etish orqali allomalarimiz, xalq qahramonlari hayoti-faoliyati bilan yaqindan tanishib, o'zbek xalqining jahon xalqlari qatoridagi o'rinni va nufuzini anglamoqdalar.

Bola tafakkurini har tamonlama rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda sayr-sayohat darslari keng ko'lamma olib borish kerak. CHunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchining vazifasidir.

Bolaning hissiy bilish, ma'lumot va ko'nikmalarini qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun erkinlik berish, uni ijodiy ishlarni qilishga, bajargan ishi samarasini ko'rib quvonishiga, yangi-yangi yutuqlarga yo'llash zarrub.

Bolalarga beriladigan bilimlar, ko'nikmalar asosan dars jarayonida singdirilishi, birinchi sinfda o'quv yili davomida, uyga vazifa berilmasligi, berilsa ham ular yengil kuzatish, taqqoslash, sanab ko'rish, rasm chizish, qo'shiq aytish, sayr qilishdan iborat bo'lib, bu bilan ta'lim elementlarini asta-sekin o'zlashtirib borishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonda bola fikrlaydi, sanaydi, faraz qiladi, tevarak-atrof go'zalligidan bahramand bo'ladi, eng muhimi, hordiq chiqarib tinch u xlabeldi va ertasiga darsga ziyrak holatda keladi.



Eskirib borayotgan usullar, uy vazifasining ortib borishiga yo'l qo'ymaslik, xususan 2-4 sinf o'quvchilariga beriladigan uy vazifalarini me'yorlash, ayniqsa shanba kuni vazifa berilmaslikni uqtirish joiz.

Amalda stol ustida o'ynaladigan o'yinchoqlar, harakatli o'yinlar, texnik o'yinlar, soha ko'rinishi atraktsionli o'yinlardan foydalaniladi.

Bola hayotida rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda katta odamlar o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarni o'zлari tushunadigan vaziyatlarda qaytaradilar. Bola o'ziga ma'lum bir rolni olar ekan, tegishli qoida, vazifalarni bajaradi va bu qoidalarni o'zlashtirib oladi, ahloqiy malaka va odatlarni egallaydi. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yin ko'pchilik bilan o'tkaziladi.

O'yin davomida bolalar o'rtasida kattalar orasidagi munosabatlar tarkib topadi va asta-sekin mustahkamlanadi.

Bolaning yoshi o'sib borishiga qarab rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yinlar bilan bir qatorda didaktik va harakatli o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola maktabga qatnay boshlaganda o'yinning ahamiyati bir oz kamaydi. Lekin bu o'qish o'yinni bola hayotidan butunlay chiqarib tashlaydi degani emas. Bu holda o'yinning harakteri, uning mazmuni o'zgaradi, biroq uning bolalar tabiyasidagi muhimligicha qolaveradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarningi rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda ular tasvirlayotgan kishilarning xususiyatlari muhimroq bo'lib ko'rindi. O'quvchilarning kuchliylik, botirlik, chaqqonliligiga sabab bo'ladi. Bolalar to'siqlarni yengib o'tishga harakat qiladilar, qahramonona ishlarni bajaradilar.

Boshlang'ich maktabda o'qishning oxiriga borib, ong-bilim doirasining kengayishi munosabati bilan o'quvchilar haqiqiy qiyinchiliklarni yengib boradi. O'yin elementlarini kiritish bolalarda belgilangan ishni mumkin qadar yaxshiroq bajarish ishtiyoqini uyg'otadi va ularda har qanday ishga ma'suliyat sezgan, holda yondoshish odatini tarkib toptiradi.

Boshlang'ich talimda didaktik yoki o'rgatuvchi o'yinlar keng tarqalgan.

Ular bilishi mazmuniga ega bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga qaratilgan.

O'quv faoliyatining har-xil turlarida xilma-xil o'yinlardan keng foydalaniladi.

Geometrik shakllar: aylana, kvadrat, to'g'ri to'rburchak haqida to'laroq tasavvur hosil qilishda yordam berishi mumkin. O'qish va tabiatshunoslik darslarida sayohat o'yinlaridan foydalanishi mumkin.

O'yin faoliyatini tashkil etishda bir qator pedagogik shartlarga rioya qilish lozim. O'yining tarbiyaviy ahamiyatini o'yash kerak.

Bola yosh fiziologik-psixalogik xususiyatlarni hisobga olgan xolda matematikaga bo'lgan qiziqishlarni asta-sekin o'yg'ota borish lozim. Buning uchun darslikdagi o'quv materiyallarni qiziqarli qilib tushuntirish, mahalliy materiyallar asosida xisoblash, o'lchash, yasashga oid masalalar tuzish va yechish; didaktik o'yinlardan ertak qahramonlaridan foydalanishi muhimdur. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarning sevimli faoliyatidir. O'yin yordamida ular o'rtasida muayan munosabatlar o'rnatadigan bolalar guruhlari yuzaga keladi. “O'yin boshqa hamma usullardan ustunlik qiladi, chunki u xuddi bolalarning butun hayotini, shaxsiy faoligini, mustaqilligini yo'lga qo'yish imkonini beradi,” - deb yozgan taniqli metodist A. Usova.

O'qituvchi o'yinda bolalar faoliyatini to'g'ri boshqarib, bolalar hulq- atvorini ijtimoiy sifatlarini tarkib toptirishdek keng tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish lozim.

O'yin tarbiya vositasi sifatida; tafakkur, nutq, hayol, xotira kabi pisixologik jarayonlarni kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan, “Nima o'zgaradi” o'yinida o'qituvchi doskaga qo'g'irchoq, turli shakllar, rasmlar qo'yadi. O'quvchilar ko'zlarini yumishadi. O'qituvchi biror narsani o'rnini almashtiradi yoki olib qo'yadi. Bolalar yuqoridaqgi o'zgartirishlarni aytadilar, bunda o'quvchilarning xotirasi, geometrik shakllar haqida tasavvuri shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Jumanazarov S.S., Xaydarov B., Li D., Qayumov Sh. “Kompyuter savodxonligi asoslari”.

-T.:2014 y.

2.M.E.Jumaev, M.Yu.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” metodik uslubiy qo'llanma – T.: 2017 y.



## BOLANI O'YIN FAOLIYATIDA PEDAGOGNING ROLI

Xakimova Marxabo O'raqovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lif fakulteti Maktabgacha ta'lif  
pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi assistenti

Normurodova Muxlisa Holturdi qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lif fakulteti  
2-bosqich talbasi

**Annotatsiya:** Maqola pedagog bolalarning hayoti va faoliyatini o'yin shaklida tashkil etishiga bag'ishlangan.Bunda bolalarning faollik va tashabbuskorlikni izchil rivojlantiradi,o'yinda o'zo'zini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Kalit so'z:** Psixologik, didaktik va pedagogik yondashuv, o'yin mashg'uloti, pedagogning roli

**Аннотация:** Статья посвящена организации жизни и деятельности педагогических детей в форме упражнения.Последовательно развивает активность и инициативу детей, формирует навыки самоорганизации в игре.

**Ключевое слово:** Психолого-дидактико-педагогический подход, игровое обучение, роль педагога.

**ANNATATION:** The article is devoted to organizing the life and activities of pedagogic children in the form of a game. It consistently develops children's activity, and initiative, forms self-organization skills in the game.

**KEYWORD:** Psychological didactic and pedagogical approach, game training, the role of the pedagogue.

Bolalik inson hayotining eng go'zal shu bilan birga eng muhim davridir.Chunki kelajak uchun poydevor qurish aynan bolalik davridan boshlanadi.O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o'qitishda katta salohiyatga ega.Bolalar harakatlarni erkin boshlay olmaydi va ko'pincha pedagoglar rejalshtirgan faoliyat turlari doirasida boshlaydi.Masalan:bola rasm chizadi,yozadi,o'qiydi yoki qaror qabul qiladi.

Maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarning ta'lif-tarbiyasi to'laqonli bo'lishda o'yin mashg'ulotining o'rni va ahamiyati katta. Bola tarbiyasiga psixologik,pedagogik va didaktik jihatdan yondashishda o'yin mashg'uloti vositachi hisoblanadi. Bolaning aqliy salohiyatini oshirish uchun didaktik maqsadlarda turli o'yinlardan foydalaniladi. Masalan: matematik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda "Raqam qani?", "Nima ko'p?", mantiqiy fikrlash darajasini kuchaytirishda esa "Ishoning, ishonmang!", "Farqini toping!" kabi intellektual o'yinlarning ahamiyati katta. Kichkina bolalar ota-onalari va boshqa insonlari bilan o'zaro munosabatga kirishib hamda predmetlar,materiallar va tabiatni anglash orqali bilimini kengaytiradi. L.S.Vigotskiy hisoblashicha,kognitiv rivojlanish eng yaqin rivojlanish zonasida boshqariladigan o'qitishdan ijtimoiy o'zaro aloqadorlik orqali yuz beradi. Zero,bolalar va ularning hamkorlari dialog orqali bilimlarini birgalikda boyitadi.Shuning uchun ta'lif strategiyalari bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini hisobga olish kerak,chunki ular pedagoglar va bolalar o'rtasidagi hamda bolalar va boshqalar o'rtasidagi muloqotlar asosida o'rganadilar.[1]

Tarbiyachi bir vaqtning o'zida ham pedagog,ham o'yin ishtirokchisiga aylanadi.U o'rgatadi va o'ynaydi,bolalar esa o'ynab o'rganadilar.Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan eng yaxshi strategiyalar bu bolalar o'yiniga turtki beradigan,rag'batlantiradigan va uzaytiradiganlaridir.[2]

Hazrat Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda "bolalik bahori g'unchasining ajb gullari va sig'ar gulzorining bog'chasining g'arib chechaklari bilan orasta bo'l'mog'i lozim.[3] Bunda shoir faylasufona fikr bildirib, "ajib gullar" va "chechaklar" jumlalarini aytish bilan ta'lif va tarbiyaga urg'u bergen.Ya'ni gulzor gul va chechaklar bilan orasta bo'lgani singari bolalik ham ta'lif tarbiya bilan inson umrining eng mukammal bosqichi bo'lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bodova,E.Leong,D.J.Tools of the Mind:The Vygotskian approach to early childhood education .Upper Saddle River,NJ.,2007
2. O'yin orqali ta'lif olish metodik qo'llanma.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi.T-2020
3. A.Navoiy "Xazoyin ul-maoniy".Toshkent:Yangi asr avlod,2016.11-bet.



## SAVOD O'RGATISH DAVRIDA YOZUVGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

**Oripov Xakimjon, Qo'chqarov Mirzavali**  
Namangan viloyati PYAMO'MM o'qituvchilari.  
Tel: 90-641-86-44

**Annotatsiya:** maqlada boshlang'ich ta'lurma o'qish va yozishga o'rgatish tilshunoslik, pedagogika, adabiyotshunoslik va metodika sohasida erishilgan yutuqlarga asoslangan .

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish, milliy qadriyatlar, halollik, rostgo'ylik, tovush va harflar, nutq .

Boshlang'ich ta'lurma o'qish va yozishga o'rgatish tilshunoslik, pedagogika, adabiyotshunoslik va metodika sohasida erishilgan yutuqlarga asoslangan, takomillashgan hozirgi zamon analitik-sintetik tovush metodi vositasida amalga oshiriladi hamda o'quvchilar nutqini rivojlantirishni nazarda tutadi. Darsda o'quvchilar gapni so'zlarga, so'zni bo'g'lnlarga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytishni o'rganadilar, o'rganilgan tovushlarni o'zarobog'lab so'z tuzish va o'qish yuzasidan mashq qiladilar. Bolalar tovushlarni yozuvda harf bilan ifodalash, harflardan bo'g'in va so'z tuzishga, ularni o'qishga o'rganadilar. Gap va bog'lanishli matnni ongli, to'g'ri, bo'g'lnlab ravon o'qish, so'ngra so'zni butunicha sidirg'a o'qish malakasini egallaydilar.

O'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish baravar olib boriladi. Yozuvda tovushlarni harflar bilan belgilashga, harflar va bo'g'lnlardan so'z tuzishga, so'z va gaplarni yozma to'g'ri shakllantirishga, talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni va qisqa gaplarni eshitib yozishga, gapning birinchi so'zini, kishilarning ismini, shahar, qishloq, ko'cha nomlarini, ayrim hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan yozishni bilib oladilar.

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning boshqalar nutqini diqqat bilan tinglash va nima haqida gapirayotganini tushunib olish ko'nikmalar o'stiriladi. Bolalar sinfdoshlari oldida gapirishga, o'qituvchining savollariga javob berishga, topshiriqlarni mustaqil bajarishga, bilmagan va o'zlar qiziqqan narsalar to'g'risida so'rab biling olishga, o'qiganlarini qayta hikoyalashga, o'zlar kuzatgan, ko'rgan kinofilmilar hamda eshitgan va o'qigan hikoya, ertaklari, kuzatgan rasmlari haqida hikoya qilib berishga o'rganadilar.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar olgan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar birgalikda o'qish jarayonida maxsus sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga tatbiq etiladi. Savod o'rgatish davrida sinfdan tashqari o'qish haftada bir marta o'tkaziladi va unga o'qish darslarining ikkinchi qismidan 15- 20 daqiqa ajratiladi. O'qish va yozishga o'rgatish darslarida bolalar ruhiyatini hisobga olgan holda ish turlarini mukammallashtirish talab etiladi, dam olish mashqlari o'tkaziladi. Metodik qo'llanmalarda berilgan didaktik o'yinlardan foydalanib, bir turidan boshqa turiga o'tiladi va o'quvchilar toliqishining oldi olinadi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tabiatdag'i o'zgarishlar, kishilarning turli mavsumda bajaradigan mehnatlarini kuzatadilar va shular asosida hikoya tuzishni o'rganadilar. Bu davrda olib boriladigan barcha ishlarda oila va maktab hamkorligining uziyigligi, o'zarobog' muomala madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qish va yozish nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish **o'qish va yozish ko'nikmasi** deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilalar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakanaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushslash, qanday yurgizish haqida o'yab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'yab o'tirmay amalga oshirilish



jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojini yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stridi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad - o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarishi shart bo'lgan kundalik maqsad - topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish, rasm asosida so'zlab berish kabilar turadi. O'zbek tili yozushi tovush yozushi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddallashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1.G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O'qituvchi, 2003.

2.Qosimova Q. “2-sinflarda ona tili darslari”, T. “O'qituvchi”, 1998 yil.



O'ZBEK MUSIQASIDA BASTAKORLIK VA KOMPOZITORLIK USLUBLARI  
HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

**Tursunov Abduraim Ramazanovich**

Termiz davlat universiteti musiqa  
talimi kafedrasi mudiri dotsenti

**Tursunova Dilbar Abduraimovna**

Termiz davlat pedagogika instituti  
2- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek kompozitorlarining ijodi Xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog'langan, g'oyaviy va badiiy jihatdan yuksak saviyadagi musiqa asarlari yaratuvchi ijodkordir, opera va boshqa asarlari nota yozuvlari orqali klavir yoki partituralarda o'z aksini topadi fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet, musiqali drama, kino musiqasi.

**Аннотация:** В данной статье творчество узбекских композиторов тесно связано с народным творчеством, они являются создателями музыкальных произведений высокого идеино-художественного уровня, оперные и другие произведения отражены в фортепианной или партитурной форме через ноты.

**Ключевые слова:** большой хор, симфоническая музыка, опера, балет, музыкальная драма, музыка для кино.

**Annotation:** In this article, the work of Uzbek composers is closely connected with folk art, they are the creators of musical works of a high ideological and artistic level, opera and other works are reflected in piano or score form through notes.

**Key words:** large choir, symphonic music, opera, ballet, musical drama, film music.

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga egadir. Musiqa merosidan, Xalq kuy va qo'shiqlaridan ilxom olmagan zamonaviy musiqaning biron bir soxasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet, musiqali drama janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralmagan holda tassavur etib bo'lmaydi. Musiqa merosimizni, milliy musiqamizni ko'plab etnografik ansanbllar keng tashviqot qilish va uni yangi mazmun bilan boyitishda muhim o'rinn tutadi. Bu ishda Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Domla Halim Ibodov, Hojixon Boltaev, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov va boshqalar katta faoliyat ko'rsatdilar. Bunday xofizlarimiz ijro etgan kuy va qo'shiqlar, maqomlardan tashqari musiqaning boshqa janrlari ya'ni kompozitorlik ijodiga mansub bo'lgan asarlar yo'q edi. 1930- yillardan so'ng musiqamizda yangi janrlar xor, kantata, opera, balet va simfoniya kabi kompozitorlik uslublar paydo bo'la boshladi. Bunda eng avvalo Xalq musiqa merosimizni notada aks ettrish va undan kompozitorlik uslublaridan foydalanishga katta ahamiyat berildi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun Respublikamizning turli shaharlarida bolalar musiqa maktablari, musiqa texnikumlari va xalq konservatoriyalari ochildi. 1928 yil Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqod instituti tashkil topdi. Bu o'quv maskanlarida rus musiqa mutaxassislarining xizmatlari katta bo'ldi. Natijada musiqalarni notaga olish, ansanbllar tuzish, zamonaviy janrlarda yangi asarlar yaratish ishlari boshlandi.

O'zbek musiqasi tarixida 1920- yillardan keyin musiqamiz ko'lami yanada kengaydi, yangi shakl va janrlar paydo bo'la boshladi. Xususan, xor, kantata, syuita, opera, balet va simfoniya kabi kompozitorlik ijodiga mansub asarlar ham yaratila boshlandi. Bu jarayonda Xalq musiqalarimizni notada namoyon qilishga katta ahamiyat berildi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona kabi shaharlarda Xalq konservatoriyalari, musiqa texnikumlari va musiqa maktablari ochildi. 1928-yilda Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Bu dargoxlarda milliy kadrlar tayyorlashda rus mutaxassislar, kompozitorlarning hissalarini katta bo'ldi. Ayniqsa V.A.Uspenskiy, S.N. Vasilenko, Ye. Ye. Romonovskaya, N. I. Mironovlarning xizmatlari ulkan edi. Ana shu davrlarda Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burxonov, Muxtor Ashrafiy, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov, Doni Zokirov, Ilyos Akbarov, Sharif Ramazonov kabi milliy kompozitorlar va musiqashunoslar avlodni yetishib chiqdi. Natijada Xalq musiqa merosimizni o'rganish, notaga yozib to'plash, etnografik ansanbllar tuzib Xalqimiz orasida ularni keng targ'ibot qilib, yanada rivojlantirish va shu bilan birga zamonaviy



janrlarda yangi asarlar yaratish ishlari avj oldi. Ayniqsa Toshkent Davlat Konservatoriysi va O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasining ochilishi hamda Toshkent shahar va jumhuriyat viloyatlarida qator musiqali drama teatrlarining tashkil topishi, natijada milliy musiqamiz ko‘lami yanada kengaydi. Natijada milliy musiqamiz asosan ikki yo‘nalishda – og‘zaki an‘ana va kompozitorlik musiqa ijodi uslubida keng rivojlana boshladi. Shu yillarda tashkil topgan ko‘plab etnografik ansanbllar Xalqimiz orasida milliy musiqamizni keng tashviqot qilish va uni yangi mavzu bilan boyitishda muhim o‘rin tutadi. O‘ttizinchi yillar oxirida rus kompozitorlari N. Roslovs va F. Tal o‘zbek san’atkorlari yordamida “Paxta”, “Shoxida”, “Gulandom” kabi birinchi o‘zbek baletlarini, M. Ashrafiy va S. Vasilenko esa “Bo‘ron”, R.Glier va T.Sodikovlar “Layli va Majnun” operalarini yaratdilar. Shu yillari o‘zbek musiqa folklori asosida A.Kozlovskiy, va G.Mushel ilk simfonik asarlar yaratdilar. Urush yillari vatanparvarlik va do‘stlik ruhida qator musiqali dramalar, operalar, vokal va simfonik asarlar yaratildi. Urushdan keyingi yillarda milliy uslubga hamohang asarlar ko‘plab yaratildi. O‘zbekiston simfonik orkestrlari “Bahor” raqs ansanbllari tashkil topdi. Bu davrda estrada janri ham keng rivojlandi. Bu janrda O‘zbekiston Xalq artisti Botir Zokirov unitilmas iz qoldirdi. O‘tgan davrlarda bolalar musiqasiga ham e’tibor kuchaydi. Mutavakkil Burxonov, Doni Zokirov, Manas Leviev, Fattoh Nazarov, G‘ofur Qodirov, Sharif Ramozonov, Mardon Nasimov, Yefim Shvarts kabi kompozitorlar qator xush ohang qo‘shiqlar va kantatalar yaratdilar. Sobir Bobaev esa “Yoriltosh” operasini yaratdi. Bugungi kunda kompozitorlarning keksa avlodiga qo‘silib Nadim Norxo‘jaev, Komil Kenjaev, Avaz Mansurov, Shermat Yormatov, Muhammad Otajonov, Dilorom Omonullaeva va boshqa kompozitorlar, bolalar hamda yoshlar uchun zamonaviy asarlar yaratmoqdalar. O‘zbek musiqa san’atinig rivojlanishiga Xorazmlik kompozitorlarining keksa avlodlari ham o‘z hissasini qo‘sghanlar. O‘sha yillari Raxmon Ollaberganov bir qator spektakllarga musiqa bastaladi. Urush xaqida Vatan xaqidagi qo‘shiqlari, ayniqsa Abdusharif Otajonov yaratgan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasi butun Respublikamizga tanildi. Sharif Ramozonovning bir qator xor, kantata, vokalsimfonik syuitasi va qo‘shiqlari xozirgacha o‘z mavqeni yo‘qotmadi. O‘zbek bastakorlari ashula va kuylar yaratish bilan bir qatorda ular kompozitorlik musiqa janrlari musiqali dramalar, syuita, opera va baletlar yaratishda ham kompozitorlar bilan hamkorlik qilganlar. Misol uchun O‘zbekiston Xalq artisti To‘xtasin Jalilov yigirmadan ziyod qo‘siq ijod etgan hamda bir qator sahna asarlari va musiqali dramalarga kuy bastalagan “Gulsara”, “Toxir va Zuxra”, “Nurxon,” “Ravshan va Zulkumor,” “Alpomish” kabi sahna asarlari shular jumlasidandur. O‘zbek musiqasida kompozitorlik uslublari haqida gapirar ekanmiz kompozitor so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tiboringizni qaratsak. Kompozitor (lotinchcha “kompozitor” - ijodkor) musiqa asarni yaratuvchi shaxsdir. Kompozitorlik asosan Ovro‘po san’atida shakllangan bo‘lib, kompozitorlar ijodi ko‘pincha opera, simfoniya, oratoriya, balet, sonata, kino musiqasi kabi ko‘p ovozli garmonik musiqa turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bunday musiqalar yaratuvchi ijodkorlar, odatda, konservatoriyada kompozitorlik fakultetida maxsus ta’lim olgan bo‘ladi va uni “kompozitor” deb nomlashadi. Kompozitorlar ma’lum bir mavzuni badiiy tasvirlaganidek, Xalq ijodiyoti, ya’ni folkloridan foydalanib, yoki shu folklor materialini o‘zgartmagani holda, uni boyitib, badiiylashtirib beradi. O‘zbek kompozitorlarining ijodi Xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog‘langan. U g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak saviyadagi musiqa asarlari yaratuvchi ijodkordir. Respublikamiz maxalliy professional kompozitorlari 1940-yillardan boshlab yirik musiqa asarlari yarata boshladilar. Kompozitorlarning simfoniya, opera va boshqa asarlari nota yozuvlari orqali klavir yoki partituralarda o‘z aksini topadi.

### Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrining arxiv so‘rovnomahujjatlari. 1987-1988 yillar.
2. A.Otajonovning farzandlari, shogirdlari bilan o‘tkazilgan shaxsiy suhbatlar, ularning xotiralari.
3. “Xorazm xaqiqati” gazetasida 1960-1980y. chop etilgan teatr, musiqa san’atiga oid maqolalar.



## TARBIYANING JAMIYATDAGAI O'RNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Xakimova Marxabo O'raqovna

O'zbekiston – Finlandiya Pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lif fakulteti Maktabgacha ta'lif  
pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** yetuk, barkaol shax, talaba, tarbiya, komil inson, yosh avlod, ijtimoiy, xulq-atvor, ota-on, dunyoqarash, tarbiya.

Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkaol shaxni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib boradi. Shu sababli ta'lif va tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qaraladi. Har bir ijtimoiy tizimda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lif-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroficha o'rganishni tavozo etadi. Tarbiya-ijtimoiy xodisa. U kishilik jamiyatni paydo bo'lgan davrdan beri mavjud.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida, ya'ni ibridojy jamoa tuzumi davrida odamlar insonning kamoloti to'g'risidagi g'oyalarini juda ko'p rivoyatlardan foydalanib baxshilik yo'li orqali avloddan-avlodlarga yetkazganlar. Kelajak bugundan boshlanadi – deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning qay maqsadga yo'naltirib, kelib chiqadigan muhim vazifalarni bajarishga bog'liq. Bu esa shaxslarning tarbiyasiga bog'liq.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Shuningdek, tarbiya mazmunini Qur'oni Karim oyatlari, Muhammad payg'ambarimiz (a.s.) Hadislari, milliy va madaniy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, mutafakkir va olimlarning tarbiyaga oid asarlari kabilar tashkil etadi.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidur»<sup>1</sup>. Ushbu fikrlardan angilanladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga munta zam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarining hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida o'quvchi tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobjiy) ta'siri o'quvchining ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. O'quvchi faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

1 Avloniy, Abdulla. Turkiyguliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.



Tarbiya jarayonida talabaning ongigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. U o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o‘quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o‘quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda o‘quvchining tengdoshlari va o‘zini o‘zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Talaba o‘z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo‘lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me’yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Bu borada, millatimizning ma’naviy qadriyatlari haqida gap ketganda uzoq asrlar qa’rida yuzaga kelgan, vatanparvarlik, do‘stlik, tinchliksevarlik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, birodarlik va ahil qo‘shnichilik munosabatlari kabi ezgu insoniy fazilatlarni alohida aytib o’tish lozim. Bularni barchasi bilan hayot davomida duch kelamiz va shular orqali kamol topamiz.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o‘quvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo‘shib olib borilishini ta’minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g‘oyalariga amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o‘ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosi shunchalik boy bo‘ladi.

O‘z tabiatiga ko‘ra tarbiya jarayoni ko‘p omilli xarakterga ega. Ya’ni, o‘quvchi shaxsining qaror topishi oila, ta’lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta’sirlar ostida ro‘y beradi.

Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo‘lmaydi. Bu narsa o‘quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasi, shaxsiy pozisiyasiga bog‘liq.

Tarbiya jarayoni, odatda, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash, o‘quvchiningsh atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O‘zini o‘zi tarbiyalash shaxsni o‘zida ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta’riflanadi.

O‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. O‘quvchi xulqidagi «og‘ish»lar oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo‘l qo‘ygan xatolari, o‘qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o‘zgartiriladi, qayta tarbiyalashda kasb-hunar kollej va shaxsning shaxsiy ta’sirini oila, shu jumladan, ota-oni ham ma’qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash o‘quvchining o‘zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

**Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari.** Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:



- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;
- b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqr bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;
- v) umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, alodatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
- g) o‘quvchilarda huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;
- d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;
- j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;
- z) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;
- i) insonni oliv qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.
- O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat.
- Shu bilan birga ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

### **Adabiyotlar**

1. Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Ikkinci nashr. - Rutledj. 2012. 202-bet.
2. Azizxulayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: 2020y. 183 bet.
3. Mavlonova R.A. va boshqalar. Umumiypedagogika.- T.: 2010 y. “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Maxmudova M.M. Oila tarbiyasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2021. - 183 бет.
5. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M. umumiy tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati. 2010 y.



## ЎҚИТУВЧИННИГ КАСБИЙ ФАОЛИЯТИДА ЙОЗАГА КЕЛАДИГАН СТРЕССЛИ КЕЧИНМАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Раимова Умида Баҳодир қизи  
Қарши давлат университети Психология  
мутахассислиги 2-курс магистранти  
Тел: +998978020232

**Аннотация:** Ушбу мақолада ўқитувчиларнинг касбий фаолиятида юзага келадиган стрессли муаммоли вазиятларда уларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари талқин қилинган. Бундан ташқари ушбу стрессли кечинмаларнинг ижтимоий-психологик омиллари билан бир қаторда касбий стресс профилактикаси доирасида педагог-ўқитувчиларимиз учун тавсиялар ҳам келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Ахборот глобаллашуви, касбий стресс, ижтимоий детерминантлар, экологик, трансакт ва регулятив ёндашувлар, когнитив тўйиниш, аутоген ва релаксацион машқлар, конструктив позиция.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 4947-сонли Фармони билан қабул қилинган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “**Ҳаракатлар стратегияси**”да таълим сифатини тубдан ошириш, бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган. Мазкур вазифаларни амалга ошириш жараёнида барча йўналишдаги фанлар бўйича давлат таълим стандартларини, ўқув дастур ва режаларни янгилаш, ўқитишни сифат ва мазмун жиҳатдан янада такомиллаштириш зарурдир. Ушбу муносабат билан Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2017 йил 6 апрелда “**Умумий ўрта ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартлари**” тасдиқланди.

Шахснинг барча фаолият турлари каби таълим жараёни ҳам ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у кишининг билиш жараёнлари, индивидуал хусусиятларига алоҳида талаблар қўяди. Мазкур фаолиятга муносабат шаклида у ёки бу психик ҳолатлар пайдо бўлади. Таълим жараёнида вужудга келадиган психик ҳолатлар доимо бир хил сифат ва давомийликка эга бўлавермайди. Ижобий кечинмалар фаолият самарадорлигига таъсир этиб, уни янада қизиқарли бўлишини таъминласа, салбий ҳис-туйғулар таълим жараёни самарадорлигини тушуриб юбориши ҳам мумкин. Бир неча объектив, субъектив сабаблар таълим жараёнида ўзига хос стрессларни вужудга келишига турткি бўлиб ҳисобланади. Таълим фаолиятида пайдо бўладиган стрессларни бартараф этиш таълим самарадорлигини оширишнинг энг муҳим омилларидан биридир.

Ўқитувчининг касбий фаолияти ундан юқори ақлий салоҳиятни, юксак маънавиятни талаб этар экан, албатта бу салоҳиятни юксалтириш учун етарлича ижодий вақт бўлишини тақозо этади. Ҳозирги ахборот глобаллашуви жараёнида жамият хаётида юз бераётган ўзгаришлар педагогларимизда “**ижодий вақт танқислиги**” муаммосини келтириб чиқармоқда. Натижада, бу ҳолат педагогик фаолият билан боғлик эмоционал, ақлий зўриқишлирнинг кучайишига сабаб бўлмоқда. Шахс ҳаётида психологик зўриқишлирнинг энг кўп учрайдиган турларидан бири – бу стрессдор.[1]

Ҳозирги жамиятимизда педагогнинг мустақил равишда билимларни эгаллаб, ўз малакасини ошириб бориши - бир томондан ўқитувчилик фаолиятининг борган сари накадар муваффақиятли бораётганлигини кўрсатса, иккинчи томондан муҳим вазифа эканлигидан далолат беради - чунки, бу кечиктириб бўлмас жараён шахсни интеллектуал қашшоқликдан қутқариб қолади.

Психологик нуқтаи-назардан педагог доимий равишида ўз билимларини ошириш билан шуғулланиши зарурдир. Чунки ўқитувчилик меҳнатининг асосий хусусияти ҳам шудир. Педагог ҳар доим одамлар орасида бўларкан, у биринчидан, одамларни кўпдан бери қизиқтириб келаётган ҳақиқатни ўз қарашлари бўйича тўғри тушунтириб бериши лозим. Албатта, педагогдаги бу тариқа қарашлар кўп йиллар давомидаги меҳнат ва ҳаёт фаолияти жараёнида шаклланади; иккинчидан, педагогнинг ўзи ахборотлар олиш учун ўқувчиларга нисбатан чекланган вақт имкониятига эга; учинчидан, у ўта тор доирадаги тенгкүрлари билангина мулоқотда бўлиш имкониятига эга бўлиб, кўпинча ўз касбига хос қизиқишлир билангина чекланиб қолади.



Педагогга жамият томонидан қўйиладиган талаблар, турли хилда ижтимоий қутишлар, педагогнинг индивидуаллиги, унинг шу тариқа талабларга жавоб беришга субъектив тайёрлиги муайян ўқитувчининг педагогик фаолиятга нақадар тайёрлигидан далолат беради.

Педагог ўз касбидан ва ҳаётдан доимо мамнунлигини дилдан ҳис қилиб, бу ҳолатни атрофдагиларга, жумладан ўқувчиларига, ҳамкасларига, оила-аъзоларига ҳам намоён килиши зарур. Доимо оптимистик кайфиятда бўлиш, биринчидан таълим самарадорлигига таъсир қиласди; иккинчидан ўқувчиларда педагогик касбга қизиқиш уйғонади. Ўқувчиларда келажакда мен ўқитувчи бўлсанм, устозимга ўхшаб, ҳаётда ўз ўрнимни топаман, ҳаётдан мамнун яшайман, деган фикр шаклланади. Шундай қилиб, ўз ҳаётидан ва касбидан мамнун ўқитувчиларимизда стрессга барқарорлик шаклланади, кучли зўриқиши ҳолати бўлмиш стресс уларни четлаб ўтади.[2]

Юқоридаги илмий таҳлилларга асосланиб, касбий стресс профилактикаси мақсадида педагогларимиз кун давомида қуйидаги тавсияларга амал қилишлари зарур:

### Ўқитувчилар учун:

- \* Ўқитувчилар ўз устиларида ишлаб, касбий компетентлик даражаларини ошириб боришлари ва кун тартибига риоя қилиш;
- \* кун давомида бир маротаба аутоген ва релаксацион машқлардан фойдаланиш;
- \* бир кунлик ақлий меҳнатдан сўнг албатта жисмоний машқлар билан организмдаги чарчоқ ҳиссидан ҳалос бўлиш;
- \* шахслараро муносабатларда конструктив позицияда бўлишга интилиш;
- \* оиланинг релаксацион ва фелицитологик вазифаларидан унумли фойдаланиб, албатта кун охирида кулгу терапиясини бажариш.

### Педагогик жамоа раҳбарлари учун:

- \* педагогик жамоада инсон ресурсларини муҳофаза қилиш мақсадида меҳнатни тўғри (яъни, иш вақти ва дам олиш вақтига тўлиқ амал қилиш) ташкил этиш;
- \* меҳнат субъекти бўлмиш педагогларнинг психоэмоционал саломатлигини таъминлаш учун таълимда психологик хизматни кучайтириш мақсадида руҳиятни соғломлаштириш доирасида чуқурлаштирилган тадбирларни олиб бориш;
- \* педагогик иш стажи ва ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳодимларга иш тақсимлаш;
- \* Ўқитувчиларнинг фаолиятини маънавий ва моддий рағбатлантириш;
- \* жамоадаги ижтимоий психологик иқлимини яхшилаш ва педагогларда саноген тафаккурни шакллантиришга қаратилган психологик тренингларни мунтазам равишда ташкил қилиш;
- \* вақтни тўғри ташкил эта олмаслик ҳам стрессоген омил эканлигини ҳисобга олиб, педагогларда вақтни тўғри ташкил этиш ва ундан фойдаланиш самарадорлигини ошириш учун “Time management” мавзусидаги тренинглар дастурларини ишлаб чиқиш ва маҳсус ўқув курсларини ташкиллаштириш тавсия этилади.

Жумладан, психология фанлари номзоди, доцент Э.З.Усманова ўз илмий изланишларида шахслараро муносабатлардаги низоли вазиятларда эмоционал ўз-ўзини бошқариш масаласи ва бу ҳолатларни когнитив мотивация билан боғлиқлиги масалалари таҳлил қилинган [3]. Қолаверса, Э.З.Усманова томонидан қатор илмий мақола ва изланишларида стресс, педагогик фаолият, эмоционал сўниш муаммоси ҳам кенг таҳлил қилинган. Жумладан, муаллиф стресс психодиагностикаси, оилавий муносабатларда стресс ва уни психопрофилактикаси, инсон саломатлиги ва стрессга оид муаммони таҳлил қилиб, психологияда стресс факторларнинг таъсир даражасини ва шахсда стресс даражасини психодиагностика қилиш ҳозирги информация оқими кучайган даврда мухим эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтган. Педагог касби когнитив жараёнлар фаол бўлиши, шахслараро муносабатлар тизими кенглигининг тақозо этишини ҳисобга олсан, айнан педагогик фаолиятда стресс профилактикасини йўлга кўйиш мақсадга мувофиқдир.

**Хулоса қилиб, шуни айтиш жоизки,** педагогик фаолият энг мураккаб соҳалардан бири ҳисобланади. Чунки бунда ҳар бир боланинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиб, уларга мослашиб, педагогик талаблардан четга чиқмай фаолият юритиш ҳар бир педагогда стрессларни келиб чиқишига сабаб бўлади. Стрессларга барқарорликни эса педагогнинг ўзи эгаллаган билим, кўнукма ва малакаси орқали назорат қиласди. Педагогнинг барча ижобий, умуминсоний аҳлоқ меъёрларига мос келувчи ҳислатлари катта аҳамиятга эга.



Агар биз қуидаги ҳислатларини олиб қарайдиган бўлсак, буларнинг барчаси ҳам ўта муҳим омиллардир. Жумладан, ўқитувчининг ташқи қиёфаси унинг обрўси шаклланишига таъсир этади. Ўқитувчининг озодалиги, ихчамлиги, унинг покизалиги, саранжом - сарышталиги, ўзини чиройли тутиши қадди-қомати ва юриш-туришлари ўқувчиларда жуда яхши таассурот колдиради.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙҲАТИ:**

1. Логинова А.В. Профессиональный стресс и синдром профессионального выгорания в педагогическом деятельности. М.: Молодой ученый. 2015. №11(91). С. 1408-1410.
2. Психоэмоциональный стресс / Под ред. К. В. Судакова. М.: НИИ им. П. К. Анохина РАМН, 1992 С. 54-55.
3. Усманова Э.З. Мотивационно-эмоциональная регуляция мышления в условиях межличностного взаимодействия/ Автореферат дис.к.пс.н. Москва-1986, с. 26



## BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGIVA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Aliboyeva Sevara Nizomiddinovna

Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahri  
40-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

### Annotation

Maqlola matabning boshlang‘ich sinf ona tili darslarida oquvchilarning tushunishlari va fanning qiziqarli bo‘lishi uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yinlar, texnologiya, axborot texnologiyalari.

*Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapdi. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etedigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talabları bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.*

(Sh.Mirziyoyev)

Ta’lim sohasidagi muhim hujjatlar – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining ta’lim tarbiyani yanada takomillashtirishga qaratilgan Qarorlari talablariga asosan yosh avlodga jahon ta’lim standartlari darajasida ta’lim va tarbiya berish ko‘zda tutilgan. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri komil inson g‘oyasi hisoblanadi. O‘quvchilarni komil inson etib tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Komil inson asosiy g‘oyasini amalga oshirishda savod o‘rgatish davri muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi o‘quv dasturlari o‘quvchilarning xususiyatlarini ularning yilma-yil aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan o‘sib borishini hisobga olgan holda bosqichli ketma-ketlik tamoyili asosida tuzilgan. Shunga asosan har bir mavzuning o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirib olinadigan qismi quyi sinflarda murakkabroq qismi keyingi sinflarda o‘rganiladi. Ba’zi so‘z turkumlari boshlang‘ich ta’limning hamma sinflarida o‘rganiladi. Dastlab uning asosiy belgisi-narsa-buyum nomini, belgisini, sanog‘ini va harakatini bildirishi o‘rganiladi, o‘quvchining shu olgan bilimlari asosida qanday so‘roqqa javob bo‘lishi singari qo‘shimcha belgisi ham o‘zlashtirilib olinadi. O‘quvchilar sinfdan-sinfga o‘tib ulg‘ayib borishi bilan so‘z turkumlarining o‘ziga xos belgisi ham o‘rganilib boriladi.O‘quv materialining bunday o‘rganilishi bir sinfda egallangan bilimlarning keyingi sinflarda yana takrorlanishini taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish mazmunida didaktik o‘yinlar alohida ahamiyat kashf etadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo‘lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta’sir qudratiga egadir. Didaktik o‘yinlar davomida bolalar jamoa bo‘lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o‘z navbatda erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi. Didaktik o‘yinlar asosan ta’lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma’lumot berishni yengillashtirishga, ta’limda ko‘rgazmalilikni ta’minalashga qaratilgan bo‘lib o‘quvchilarni o‘quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo‘ymaslik, toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi, dastur materiallarini o‘zlashtirishda qulaylik tug‘diradi. Didaktik materiallar o‘qituvchi tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo‘lib, u dars mazmunini to‘la ifodalash va o‘quvchilar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bullarga har turli ko‘rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o‘yin va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktik tamoillarga mos ravishda yaratiladi. Ilg‘or pedagogik tajribali o‘qituvchi tomonida ta’lim –tarbiya berishning usul va uslublarini yaxshi o‘zlashtirib, ularga ijobiyl yondoshgan holda, nisbatan samaraliroq uslub yaratish. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki dars davomoda foydalanilayotgan didaktik o‘yin darsning mavzusiga mos ravishda tanlab olinishi muhim axamiyatga egadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali natija beradi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yindan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy sharoitni



yaratadi bu esa o‘quvchilarni dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkoniyat yaratadi. O‘yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o‘quvchiga dars davomida berilayotgan manbaalarni mustaqil o‘zlashtirishini, ijodiy tafakkurini o‘stiradi. O‘yin o‘quvchilarni yashirin imkoniyatlari va fanga bo‘lgan qiziqishini ochib beradi. Didaktik o‘yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to‘plab, tez va aniq bayon etishga, mashg‘ulotlar jarayonida o‘zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi.

O‘quvchilarda bilm olishga, tengqurlaridan ortta qolmaslik hissi kuchayadi. Dars jarayonida jo‘shqin vaziyat yuzaga keladi. Eng muhumi bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi. Yosh avlodga ta’lim tarbiya asoslarini puxta o‘rganish ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma’naviy axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’limiy – tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini mavzu harakteriga qarab xilma – xil, qiziqarli va fikrlashga da’vat etish o‘quvchilardan mustaqil ijodiy mushohada yuritish o‘z fikrini aniq, ravon, ixcham holda o‘zgalarga yetkaza bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda Grammatik mavzu va o‘quv faoliyati bilan bog‘liq turli ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini oshiradi, aqliy charchoqlikni oldini oladi. Shuningdek olingen bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilishda samarali vositalardan sanaladi. Ayniqsa ona tili darslarida olib boriladigan ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati nihoyatda katta bo‘lib, ular mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Grammatik topshiriqlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bialn birga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Didaktik o‘yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to‘plab, tez va aniq bayon etishga, mashg‘ulotlar jarayonida o‘zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O‘quvchilarda biilm olishga, tengqurlaridan ortta qolmaslik hissi kuchayadi. Dars jarayonida jo‘shqin vaziyat yuzaga keladi. Eng muhumi bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatlari tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo‘lishi juda muhim. Dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni bilishi lozim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o‘quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo‘lgan usullarnitanlashi va qo‘llay olishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta’lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologoyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

O‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an’anaviy usullardan farqli o‘laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayonida qo‘llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni shakllantirish, zamonaviy ko‘rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta’limning mazmunini belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma’naviy fazilatlarni o‘zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta’limning natijasi va o‘zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob’ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o‘quvchilar atrof olamdagisi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali ular insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o‘rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

### **Foydalanilgan axborotlar ro‘yxati:**

1. “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi”. Toshkent 2015
2. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash. Toshkent 2014
3. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent - 2013
4. Internet ma’lumotlari.



**ULÍWMA BILIM BERIW MEKTEPLERINDE KELESHEK ÀWLADTIŃ  
RAWAJLANIWINDA “SCRATCH PROGRAMMALASTÍRÍW ORTALÍGÍ”NDA  
OQÍTÍWDI ÚYRETIW**

**Bazarbaeva Zamira Djumabaevna**

Nókis olimpiya hám paralimpiya sport túrlerine  
tayarlaw orayı “Informatika hám  
axborot texnologiya” páni oqitiwshisi  
Nókis qalasi: Telefon: \_90-723-78-25

**Annotaciya:** Maqalada mekteplerde “Informatika hám axborot texnologiya” páni sabaqlarında “SCRATCH PROGRAMMALASTÍRÍW ORTALÍGÍ” temasın úyretiw mäseleleri, sabaq barısında aldingı pedagogikalıq texnologiyalardı qollanıw haqqında metodikalıq usınıslar berilgen.


**Tayanish sózler:** «Informatika hám informaciyalıq texnologiyaları» pánin oqítıwdıń zamanagóy forma, usıl hám texnologiyaların qollanıw; Scratch programması imkaniyatları, Scratch programmasın iske túsiriw, Scratch interfeysi ortalığı menen tanısıw, sabaq túrleri, muǵallimniń túsindiriw usılları, interaktiv metodlar.

**KELESHEK ÀWLADTIŃ RAWAJLANIWINDA  
“SCRATCH PROGRAMMALASTÍRÍW ORTALÍGÍ”**

**«Informatika hám informaciyalıq texnologiyaları» pánin oqítıwdıń zamanagóy forma, usıl hám texnologiyaların qollanıw,** oqiwshilar araliqtan turip jańa bilimlerdi iyelewi, turaqli túrde óz ústinde islewi ushın sistema jaratiw hám oni jolǵa qoyıwda, bilim beriw procesinde tayanish bilim, kónlikpe, qánige hám kompetenciylar (qánigelik bilim)n turaqlı baqlap turiw, oqiwshilar, qábiletine qarap kásiplik baǵdarlaw jumısların alıp bariw jolǵa qoyılmaqta. Mámlekетимiz tárepinen barlıq pánler qátarı «Informatika hám informaciyalıq texnologiyaları» pánine úlken itibar berilip, onıń rawajlanıwına jaǵday jaratiw maqsetinde hámmeńge belgili global ózgerisler dawiri baslandı. Jurtbashımız da húkimetimizdiń keleshekti kóre biliwi, sanlı sistemaǵa ótiw siyasatın keń kólemde alıp bariwı hám de jańa áwlad sabaqlıqların jaratiw boyınsha baslangan is-háreketleri nátiyjesinde mashqalalar tez saplastırılmaqta. Jańa áwlad sabaqlıqları tap usınday sharayatlarda oqiwshilar óz betinshe bilim alıw, muǵallimlerge kompleks metodikalıq járdem beriw ushın jaratıldı hám jaratılmaqta. Lekin zamanagóy sanlı texnologiyadan aqlıǵa muwapiq paydalaniw tek muǵallim emes, al oqiwshilar ushın da qolaylıqlar jaratiwı menen birge qımbatlı waqiyaların tejewge járdem beredi. Sonıń menen bir qatarda házirgi waqitta aldińǵıga qaraǵanda oqiwshilardiń bilim úyreniwinde àdewir ózgerisler júz bermekte. Solay etip házirgi jas öspirimler keleshekti jaqsi hám jarqın etip kóz aldina keltiriwi hám oni àmelge asira aliwi mümkin. Jas öspirimlerdiń keleshekte jetik aqilli ilimli bilimli boliwi biz ata-ana hám ustazlardıń qolinda. Házirgi waqittaǵı kompyuter texnologiyasınıraqajlanıw dàwirinde oqiwshilar dàslep bala gezindegidey súwretlerdi óz qollari menen kompyuterde saliwi hám olargá islew beriwdi úyreniwide texnologiyaga tereń kirgizilgenligi maqsetke muwapiq bolmaqta. Mäselen “Informatika” sabaǵında oqiwshilardiń kompyuterde “Paint” baǵdarlaması arqali súwret saliwi olardıń qiziǵiwshiliǵin arttırǵan bolsa, keyingi waqtłarı sabaqlıqlarımızǵa oqiwshilardiń balalıq dàwirinen qiziǵip köretuǵın “Multiplikacyalyq filmler” (multfilm) in ózleri jarata biliwi ushın islep shıgilǵan programmalar sabaqlıqlarǵa qoyılmaqta. Bul programma “SCRATCH PROGRAMMALASTÍRÍW ORTALÍGÍ” bolip onda ózleri óz qollari menen qálegen multik qaharmanların jaratiw hám olardi júrgiziw imkaniyatına iye bola aladi. Scratch(скреч, скреч) programmalastırıw tili ápiwayı hám túsinkli bolǵanlıǵı sebepli, onda oqiwshilar, bálki, baqsha jasındaǵı balalar da óz joybarların ámelge asırıwǵa boladı. Scratch programması Massachusets universiteti professorı Metchel Reznik hám Alan Key basshilígında jaratılǵan bolıp, házirgi künde bilimlendiriwge baǵdarlanǵan grafikalıq interfeysli programmalastırıw ortalığı sıpatında úyreniledi. Scratchprogrammalastırıw ortalığında da LEGO konstruktori sıyaqlı programmanıń kodı reńli bloklardan payda etiledi (jıynaladı). Konstruktor



кóринистеги bunday bloklardiń ápiwayılıǵı programmala stırıwdı qızıqlı oyun kórinisinde úyreniw imkanın beredi.



Kompyuterler ushın programmalar arnawlı programmalastırıw tillerde jazladı. Scratch programmalastırıw tili mine usınday tillerdiń qatarına kiredi. Scratchinglisshe sóz bolıp, sızıq, ǵışhırlaw, pero, alágula, baslaw siyaqlı birneshe mánini aňlatadı. **Scratch** ing sózi dijeylar ámelde qollanatuǵın birneshe muzikali shıgarmalardı birlestiriw procesi mánisinen kelip shıqqan. Scratch programması multimediali, grafikalıq hám dawıslı úskenerler paneli, klaviatura, mishka, sensor siyaqlı qurılmalar signalların qayta islew imkaniyatına iye programma esaplanadı. Hárqanday programma siyaqlı Scratch programması da óz interfeysine iye.

Bul jerdegi oqiwshilardiń tiykargı isleytuǵın waziypasi programmada bloklardi öz orinlarina aparip qoyiw arqali àmelge asiradi. Bul bloklardiń ati **Skript**(programma) dep atalip ol—belgili algoritm tiykarında izbe-iz taqlangan reńli bloklardan ibarat. Jànede oqiwshilar hár túrli animaciyalıq kórinislerdi hám multiplikaciyasina dawis shıgariw mûmkinshilige iye bola aladi.



Biziń Nókis Olimpiya hám paralimpiya Sport túrlerine tayarlaw orayiniń oqiwshilari tiykarinan sport sheberleri bolǵanlıqtan bul pànde kompyuterde özleriniń qàniygesi boyinsha oyun túrlerin islep shıgiwǵa júdà hám qiziǵiwhiliq penen qaraydi. Házirgi waqittaǵı kompyuter



texnologiyasiniň bunshelli rawajlaniwi hàm tez pàt penen oqiwshilarimizdiň miyine aňsat siňiwi biziň keleshegimizdiň dawamshilariniň alǵa ilgerilewiniň bir kòrinisi ekenligin aytip òtsek boladi. Hätteki tek ǵana mektep jasındaǵı ǵana emes baqsha balalariniň miyleriniň rawajlaniwinda bunday programmalardiň payda boliwi biziň jańa texnologiyaliq àsirde jasap atırǵanimizdi ayqin kòrsetip bermekte.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Informatika hám informaciyalıq texnologiyalari. Oqıtılıshınıň kitabı: ulıwma orta bilim beriw mektepleriniň 5-klası ushın oqw-metodikalıq qollanba / D. T. Kamaltdinova, D. M.
2. Aripov A. N. va boshqa. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining izohli lug'ati. «Raqamlı rivojlanish tashabbusi» Dasturi, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri.
3. Sayfurov D. M., Mamasaidov M. A., Turaxanov Sh. U., Matlab I. A., Alimova M. M. Masofadan o'qishni tashkil etamiz, Respublika ta'lif markazi, 2020.



## “MEN”-OBRAZI VA O’ZINI –O’ZI BAHOLASH

**Madrimova Saida Ikramovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani  
17-son maktab amaliyotchi psixolog.  
Email:saidaikromovna2@gmail.com

**Ibadullayeva Guli Ibadullayevna**

Xorazm viloyati Yangiariq tumani  
1-son maktab amaliyotchi psixolog.  
Email:gulibadullayevna8118@gmail.com

**Annotatsita:** Ushbu maqolada “Men”-obrazi haqida va o’z-o’zini baholashda yuqori baxalashning salbiy va ijobiy,past baholashning salbiy va jobiy oqibatlari haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so’zi:**men,shaxs,realistik

“Men” — obrazi asosida ham bir shaxsda o’z-o’ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo’lishi mumkin. O’z-o’ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog’liq holda turlicha bo’lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida — aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariha bog’liq bo’lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya’ni, uning o’zi sub’ektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog’liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o’qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o’z-o’ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o’qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya’ni, bu baho ko’proq shaxsning o’ziga bog’liq bo’lib, u sub’ektiv xarakterga egadir.

O’z-o’ziga baho nafaqat xaqiqatga yaqin (adekvat), to’g’ri bo’lishi, balki u o’ta past yoki yuqori ham bo’lishi mumkin. **O’z-o’ziga bahoning past bo’lishi** ko’pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo`yayotgan talablarining o’ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o’qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida xosil bo’lishi mumkin. Bunday o’smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetraqda yurishga harakat qilishi, o’zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchszilik kayfiyatida bo’lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hatti-xarakatlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Xattoki, bunday xolat suitsidal harakatlar, ya’ni o’z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

**O’zi-o’ziga baho o’ta yuqori** ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sir ko’rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo’rttirilishi, noo’rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o’tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo’ladigan psixologik xolat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag’lubiyatga uchraganda yoki o’zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o’zgalarda deb biladi va shunga o’zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo’lmaganida» kabi bahonalar ko’payadi). Ya’ni, nimaiki bo’lmasin, aybdor o’zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar xaqida bora-bora odamlar «oyog’i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog`dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o’z-o’ziga baho realistik, adekvat, to’g’ri bo’lishi kerak. **Realistik baho** shaxsni o’rab turganlar — ota-on, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo’ni-qo’shni va yaqinlarning o’rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo’lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o’z vaqtida kerak bo’lsa to’g’rilashga o’rgatilgan bo’ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi — **referent** guruuning roli katta bo’ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga qulq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergen tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruuh real mavjud bo’lishi (masalan, ota-on, o’qituvchi, ustoz, yaqin do’star), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo’lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki tazyiq ko’rsatish



kerak bo`lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`ladi. O`z-o`zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o`z-o`zi bilan muloqot (o`zini konkret tarbiya ob`ekti sifatida idrok etish va o`zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o`z-o`zini ishontirish (o`z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo`ysundirish);
- o`z-o`ziga buyruq berish (tig`iz va ekstremal holatlarda o`zini qo`lga olish va maqbul yo`lga o`zini chorlay olish sifati);
- o`z-o`ziga ta`sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o`zida ma`qul ustanovkalarni shakllantirish);
- ichki intizom — o`z-o`zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o`zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqorida o`z-o`zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o`z-o`zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o`rin tutadi. *O`z-o`zi bilan dialog* — oddiy til bilan aytganda, o`zi bilan o`zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim reguliyativ rol o`ynaydi. Ye. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko`rsatib o`tadi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O`qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O`zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O`qituvchi, 1997 y. -272 b.
3. Sh.A.Do'stmuhammedov,Z.T.Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
- 4.S.N.Alimxo'jayeva,F.I.Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## OILADA FARZAND TARBIYASI

**Ismoilova Dilorom Muxtorjonovna**

Toshkent viloyati Olmaliq shahar  
17-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oilaning o'rni, ota-onas, mahalla va jamoatchilikning bundagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, farzand, ota-onas, ta'lim, oila, bola, odob-axloq, ta'sir.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergen.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo'shni ota-onas” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoy tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-onas o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-onas bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb beziz aymagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-onas har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oljanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rinn tutadi. Bola ota-onas tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma'naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlesh va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamin oshirish talabini qo'yadi.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima



qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rinn berilgan. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lif berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar.

Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta'lifni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'r lab berilgan ta'lif bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rindaniki, ta'lifning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi. T. “O'qituvchi”. 1999
2. A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994
3. <https://religions.uz>
4. Internet saytlari.



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MILLIYIFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

**Qurbanov Jasurbek Akmaljonovich**

Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya,  
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi  
katta o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning asosiy omillari mustaqillik, shaxs erki va huquqlarining tan olinishi, mustaqillik uchun bo‘lgan kurashlar ajdodlarimiz mashaqqatlarini ular ko‘zi o‘ngida gavdalantirish tarixiy tajribalar haqida talabalarni xabardor qilish kabilardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** kompyuter, video va audeo magnitofonlar, nusxa ko‘paytirish qurilmasi, radio, televizor, ilmiy, ilmiy-ommabop, ommabop va badiiy adabiyotlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy hujjatlar, lug‘atlar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish jarayonida bir qator ta’limiy va tarbiyaviy vositalardan o‘rinli, maqsadga muvofiq va samarali foydalanishga alohida e’tibor berildi. Mazkur o‘rinda quyidagi vositalarning samaradorligi aniqlandi:

1. Texnik qurilmalar – kompyuter, video va audeo magnitofonlar, nusxa ko‘paytirish qurilmasi, radio, televizor va boshqalar.

2. Yozma manbalar – ilmiy, ilmiy-ommabop, ommabop va badiiy adabiyotlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy hujjatlar, lug‘atlar.

3. Moddiy ashyolar – ish yuritish qurollari (ish qog‘ozi, ruchka, yozuv taxtasi, flomasterlar, skotch).

Yordamchi materiallar – kartochkalar, jadvallar, sxemalar, tasvirlar, maketlar va boshqalar.

O‘zbek xalqi o‘ziga xos milliy urf-odat, an’analari, jasur, qahramon farzandlari, ilm-fan va san’at, davlat va jamoa buyuk namoyandalari, ona-Vatani bilan faxrlanadi. Zero, o‘tmishda bu buyuk ajdodlarimiz ko‘rsatgan qahramonlik, fidoyilik, O‘zbekiston go‘zalligi bugungi bo‘lajak o‘qituvchilarda iftixor tuyg‘usining shakllanishi va barqaror bo‘lishiga xizmat qilishi tabiiydir. SHu sababli ham iftixor ramzi bo‘lgan millat, xalqning o‘zligini anglashi, o‘zining milliy qadriyatlar, urf-odatlarini unutmasdan, ularni tiklab, avaylab, boyitib o‘sib kelayotgan avlodga yetkazish lozim.

Tarixga nazar solar ekanmiz, xalq baxt-saodati, tinchligi, ozodligi yo‘lida o‘z hayotini baxshida etgan vatandoshlarimiz ko‘rsatgan qahramonlik, insonparvarlikni ko‘ramiz, u bilan faxrlanamiz. Masalan, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladigan boy ma’naviy merosga egamizki, bu yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish uchun muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu materiallarni oliy ta’lim muassasalarining O‘zbekiston tarixi, Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari, adabiyot tarixi kabi o‘quv fanlari mazmuniga singdirish, auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida ularni talabalarga maxsus risolalar, buketlar tarzida taqdim etish vaqt keldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ijtimoiy, ma’rifiy faoliyati, asarlarida o‘tmishdagi yaxshi, ilg‘or urf-odat, an’analarni takomillashtirish, diniy ta’limotdan adovatni kuchaytirish maqsadlarida emas, balki milliy ozodlik, ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda, Turkistondagi yetakchi kuchlar va ijtimoiy qatlamlarni birlashtirish yo‘lida foydalanish lozimligi haqida fiqr bildirdi. “Biz, - deydi Behbudiy, - o‘z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta’minalash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo‘ladi”. Behbudiy ta’lim-tarbiyani ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘liq holda amalga oshirishni tavsiya etgan. U yoshlar tarbiyasida oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanligini ta’kidlagan. U “Padarkush” asarida: “Bizlarni xonavayron ... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlilik, zarurat va xorliklar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...” deb yozgan edi.[1]

Behbudiy maktab, maorifni inson ongini shakllantirish va rivojlantirish, maktablararo do‘stlikni mustahkamlash vositasi hisoblaydi, ochilgan yangi usul maktablarida o‘quvchilarni shaxs sifatida



kamol toptirish, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishga e’tibor bergan.

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida o‘quvchilarga zamonaviy, dunyoviy bilim berish kerakligi, xalqning ijtimoiy, ma’rifiy ongini oshirish, ma’rifat, milliy taraqqiyot, milliy istiqlol haqida nazariy qarashlarini bayon qilgan edi. Bu fikrlar bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fitrat Vatanni sevdi, uni valine’mat deb bildi. U o‘z vatandoshlarini aziz diyori Turkistonni sevish, uni asrash, Vatan va millat saodati, baxti, ravnaqi uchun fidoyilik ko’rsatish, jasoratli bo‘lishga chorladi: Og‘ir, yigit, sening go‘zal, nurli ko‘zingda Bu millatning saodatin, baxtin o‘qidim. O‘ylashingda, turmushingda hamda o‘zingda Bu yurt uchun qutulishning borligin ko‘rdim. Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal. Hurkma – kurash, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al. Bu misralarda yoshlarni mustaqil mamlakat ravnaqi uchun kurashga da’vat qilish, ilm olishga, ma’rifat egallashga undash o‘z ifodasini topgan. Fitrat “Xurriyat” gazetasida e’lon qilgan bir maqolasida shunday yozadi: “.....har bir kishi o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonishi lozim. Kimki o‘z kuchiga ishonmay, orzu qilgan maqsadlariga intilsa, u, albatta, yarim yo‘lda yiqilib qoladi. Kimki ishonsa, u albatta, boshlagan ishini oxiriga olib boradi. Insonga xos bu his-tuyg‘ularni biz millatda ham ko‘ramiz. O‘zining milliy kuchlariga ishonmaydigan millatlar, albatta, parokanda bo‘ladi. O‘z intilishlarini amalga oshirish uchun tashqaridan yordam kutayotgan xalq sekin-asta jarlikka ag‘anaydi....”.[2] Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashi va aqlning barkamol bo‘lishi, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘ladi, inson aqliy quvvatining natijasi, aqlning rahbarligisiz saodatga erisha olmasliklarini ta’kidladi. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z pedagogik qarashlarida ta’lim-tarbiya va maorifni isloh qilish jamiyatda milliy rivojlanish va Vatanni bosqinchilardan ozod qilishning asosiy omili bo‘lishi g‘oyasini ilgari surdi.[3] Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkinligiga ishondi. Munavvarqori bolalar qalbiga Vatan tuyg‘usini singdirishni – ularni fuqarolik burchlarini samimiyl e’tiqod bilan ado etuvchilar qilib kamol toptirish omili hisobladi, u yoshlarni bilimlarni puxta egallah, mehnat qilish, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorladi, ota-onalarни farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirishga da’vat qildi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning asosiy omillari mustaqillik, shaxs erki va huquqlarining tan olinishi, mustaqillik uchun bo‘lgan kurashlar ajodolarimiz mashaqqatlarini ular ko‘zi o‘ngida gavdalantirish tarixiy tajribalar haqida talabalarni xabardor qilish kabilidan iborat. Shuning uchun ham oliy ta’lim jarayonida ozodligimiz uchun kurashgan, uni tavsiflagan hamda ozodlik, erk, ma’naviyat haqidagi fikrlari bilan unga erishish yo‘lini belgilab bergen ziyolilarning hayot yo‘llari haqida talabalarni ko‘proq xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik bergen eng katta imkoniyat millatparvarlik, vatanparvarlik, ma’naviyat, insoniylik, ozodlik haqidagi o‘gitlarini talaba-yoshlarga yetkazish, ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida o‘z yechimini kutmoqda.

### Adabiyotlar

1. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. - T.: Ma’naviyat, 1999. - 280 b.
2. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.2./Nashrga tayyor. va mas’ul muhar. M.M.Xayrullaev. - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1996. - 120 b.
3. Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 63 b.



## PSIXOLOGIYANING FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O’RNI

**Madrimova Saida Ikramovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani

17-son maktab amaliyotchi psixologi.

Email:saidaikromovna2@gmail.com

**Taxirova Sabohat Rustamovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani

49-IDUM amaliyotchi psixologi.

Email:sabohattoxirova2@gmail.com

**Annotatsita:** Ushbu maqolada psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o’rni va fanlarni o’qitilishida o’quvchi yoshlar bilim o’lishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so’zi:** Tabiat, shaxs, psixologiya

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo’nalishdagi muammolarni ma’lum ma’noda o’rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo’lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o`ziga xos va yetakchidir.

1. **Falsafa** va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo’lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to’la anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdagi o’rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo’lgan umumiyl qonuniyatlar va prinsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o’zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlar sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma’lumotlarga ega bo’lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiyl ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda.

2. **Sotsiologiya** fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o’z taraqqiyotining muhim bosqichiga o’tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko’lam kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo’lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta’minalash ishiga xizmat qiladi.

3. **Pedagogika** bilan psixologiyaning o’zaro hamkorligi va aloqasi an’anaviy va azaliy bo’lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o’ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta’lim to’g’risidagi qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o’zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo’ydi. Milliy dasturda e’tirof etilgan yangicha modeldagи **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo’lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o’z uslub va qoidalari yetarli bo’lmaydi.

4. **Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q.** psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob’ektiv o’rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e’tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi.

5. **Kibernetika** fani sohasidagi yorishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo’lib, u inson shaxsining o’z-o’zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo’lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o’z o’rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma’lumotlar asri bo’lgan XX va har bir alohida ma’lumotning qadr-qimmati oshishi kutilayotgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi.

6. **Texnika fanlari** bilan psixologiyaning o’zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomonidan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini



yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. 7. **Iqtisodiyot** bilan psixologiyaning o`zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo`lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o`ziga xos namoyon bo`lish qonuniyatlarini o`rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi.

Yuqorida ta`kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o`sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyot, qishloq ho`jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, xuquq va madaniyatshunoslik kabi o`nlab fan sohalaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O`qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O`zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O`qituvchi, 1997 y. -272 b.
3. Sh.A. Do'stmuhammedov, Z.T. Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
4. S.N. Alimxo'jayeva, F.I. Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ

**Мирзалиева Дильфуза Саминовна**

преподаватель кафедры языков

Кокандского государственного

педагогического института

**Бахромова Нафосат**

Студентка 1 курса

Кокандского государственного

педагогического института

**Аннотация:** данная статья ставит своей целью выявить педагогические условия наиболее эффективного использования интерактивных методов и приёмов на занятиях русского языка.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, познание, уровень мотивации, коммуникативная компетенция.

Инновационный подход к обучению позволяет реализовать современные цели обучения – формирование коммуникативной компетенции студентов. Новый подход к обучению русского языка, как иностранного, опирается на методы и приемы, способствующие эффективному обучению. Известно, что некоторые могут овладеть языком сразу, некоторым овладение языка дается с трудом. При всей сложности процесса обучения иностранных языков учитель ищет такие пути, способы, при которых обучение языка будет эффективным и полезным для каждого.

Преподаватель должен владеть искусством придать уроку живость и увлекательность. В арсенале искусства преподавания должен быть индивидуальный набор методов, средств и приёмов обучения. Процесс обучения русскому языку – это процесс совместной деятельности учителя и обучающихся, это передача учителем и усвоения обучающимися социальной культуры народа. Для осуществления целей обучения у учителя должны быть методические знания, умения употреблять эти знания и умения реализовать принятное решение.

Актуальной задачей современной школы является реализация новых наиболее эффективных методов обучения. Одним из таких является интерактивный метод. Таким образом, интерактивное обучение – это обучение, погруженное в общение. В интерактивных моделях обучения меняется и взаимодействие с педагогом: его активность уступает место активности учащихся, задача педагога – создать условия для их инициативы. В интерактивной технологии обучающиеся выступают полноправными участниками, их опыт не менее важен, чем опыт преподавателя, который не только дает готовые знания, сколько побуждает к самостоятельному поиску.

К методам интерактивного обучения относятся те, которые способствуют вовлечению в активный процесс получения и переработки знаний.

Для того чтобы освоить и применять эти методы учителю необходимо знание различных методик группового взаимодействия.

Интерактивное обучение – это взаимопонимание, взаимодействие, взаимообогащение. Интерактивное обучение позволяет проявляться творческому базису личности, так как активизирует внутренние ее механизмы.

Суть интерактивных методов обучения - в ориентации на мобилизацию познавательных сил и стремлений обучаемых, на пробуждение самостоятельного интереса к познанию, становление собственных способов деятельности, в развитии умения концентрироваться на творческом процессе и получать от него удовольствие. Интерактивные методы обращаются к субъектному опыту обучающихся и помогают им в процессе обучения освоить свои способы открытия социального опыта.

Интерактивные методы позволяют учащимся почувствовать свои силы, свои способности. У студентов повышается самооценка, уверенность в себе. Очень важно воспитание взаимоуважения, терпимости к мнениям и поступкам окружающих людей. Высоко ценятся в обществе такие качества, как коммуникабельность, умение общаться с людьми, договариваться, работать в команде.



Применение интерактивного обучения осуществляется путем использования фронтальных и кооперативных форм организации учебной деятельности, интерактивных игр и методов, способствующих обучению умения дискутировать.

Интерактивные методы позволяют создавать учебную среду, в которой теория и практика усваиваются одновременно, а это дает возможность обучающимся формировать характер, развивать мировоззрение, логическое мышление, связную речь; формировать критическое мышление; выявлять и реализовать индивидуальные возможности, формирований у студентов положительной мотивации к лингвистике, осознания значимости этой науки в практической деятельности.

При этом учебно-воспитательный процесс организуется так, что ученики ищут связь между новыми и уже полученными знаниями; принимают альтернативные решения, могут сделать «открытие», формируют свои собственные идеи и мысли с помощью различных средств; учатся общаться и работать в коллективе.

Таким образом, интерактивные технологии применяют приёмы и методы, которые позволяют сделать занятие необычным, более насыщенным и интересным, качественно осваивать учебный материал и включать мотивационную сферу студента.

### **Список использованной литературы**

1. Бабанский Ю. К.: Педагогика. Москва: Просвещение, 2001.
2. Вайсбурд М. Л.: Методы обучения. Выбор за вами. // Иностранные языки в школе. № 2, 2002.
3. Леонтьев А. А.: Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. Москва-Воронеж, 2001.
4. Т. Г.Мирзалиев. Особенности эстетических чувств студентов русской филологии. “Ижтимоий муҳит ва таълим жараёнида хулқ-атвор шаклланишининг педагогик ва психологик жиҳатлари / Мақолалар тўплами. -Тошкент, 11.02.2023 й. 84-б.



## CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO’NALISHI TALABALARINING DIDAKTIK JARAYONLARINI LOYIHALASHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

**Nazarov Tohir Toshpo‘lotovich**

BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti

o‘qituvchisi, dotsent.

Tel.(94)540-74-00.

nazarovtohir910@gmail.com

**Mahmudov Shahzod To‘lqin o‘g‘li**

BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti

3-bosqich talabasi.

Tel.(93) 082-89-26.

maxmudovshaxzod11@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqola “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo’nalishi talaba-larining didaktik jarayonlarini loyihalashda texnologiyalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Ta’lim muassasalarida sog’lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayonida ilg’or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

**Tayanch tushunchalar:** tenologiya, pedagog, mahorat, loyiha, malaka, bilim, ko’nikma, shijoatli mutaxassis.

Pedagogik texnologiya insonga (ta’lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya jarayonida o‘qituvchi rahbarligida ta’lim oluvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish, uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadbiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat qilish va baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi an’anaviy ta’lim XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirgi oliy harbiy ta’lim muassasalarida eng ko‘p qo‘llanayotgan auditoriya-dars tizimidan iborat. Zamонави pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo’nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta’limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

Ta’lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta’lim, o‘yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o‘rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga tizimli nuqtai-nazardan yondashish, ta’lim oluvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqlashtirilgan, individual-lashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari; ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga ta’lim oluvchining tabiiy imkoniyatlari, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil kilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

**Muammoli o‘qitish texnologiyalari:** «Fikrlar hujumi» - bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inertsiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir, bu metod A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g‘oyalarni tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag‘batlantirishdir, bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi – mashg‘ulot rahbariga bog‘liq. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak, mashg‘ulotning davomiyligi bir soatgacha.



Yalpi «fikrlar hujumi», bu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan, u katta guruhlarda - 20 dan 20 tagacha bo‘lgan - yangi g‘oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta’minlaydi. barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo‘yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o‘zaro «fikrlar hujumi» o‘tkazadi. shundan so‘ng har bir kichik guruh vakili o‘z guruhlarida ishlab chiqilgan g‘oya haqida axborot beradilar va o‘qituvchi rahbarligida jamoa bo‘lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

«Bumerang» - mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi roldida chiqishi mumkin. «bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabaning o‘quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko‘nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonch hissini hosil qilishi lozim. Bunday vazifalarni hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. o‘yinli texnologiyalarda o‘qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi, talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o‘stiradi. o‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birligida faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, O‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagи shaxs urchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Tolipov O‘. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Новиков Д.А. Развитие патриотических чувств у студентов неязыковых вузов//Ж.: «Языкознание и литературоведение». М.;2019 №5,-S.29-34.
3. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Dis. ...ped. fan. dokt. // – T.; 1998. – 288 b.
4. Yusupova M.A. Loyiha texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish- T:Universitet, 2020.-17 b.



## BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION USULLAR

O'sarova Saltanat Utayevna

Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani

XTBga qarashli 9-umumiy o'rta ta'lism maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

2022-yil II darajali “Sog'lom

avlod uchun” ordeni sohibasi.

Tel: +99 894 -711-76-78

**Annotasiya:** Hozirgi kunda ta'lism jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. O'quv tarbiya jarayoniga bunday texnologiyalarni to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Barkamol avlodni tarbiyalash, ularga o'z mavqeini anglash va o'zini –o'zi ko'rsata olishida imkoniyat yaratib berish o'quvchining birinchi galdeg'i vazifasi hisoblanadi. O'qituvchining boshlang'ich ta'lism samaradorligini oshirish usullari, ta'lism uchun zarur bo'lgan didaktik qoidalar, shu bilan bilan birga ta'lism samaradorligini oshirishda, o'quvchilarda erkin fikrlashni, darsga ilmiy-metodik va pedagogik jihatdan tayyorgarlik darajalarni rolli va didaktik o'yinlar asosida ko'rsatilgan. O'qituvchi har bir darsda har xil turdag'i ota-onalar uchun alohida rag'bat “Tashakkurnoma”lar tashkil qilgan. Bu kabi “Tashakkurnoma”lar o'qituvchi, ota-onsa, o'quvchi hamkorligini kuchaytiribgina qolmay balki fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, izlanishga harakat qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism samaradorligini oshirishda innovatsion usullar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lism-tarbiya,zamonaviy pedagogik texnologiya,didaktik va rolli o'yinlar.

Farzandlar tinchligi, ularning baxti,  
kamoloti-jamiyatning eng katta boyligi.

**Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Prezidenti**

Har bir bolada quyosh bor, shu quyoshning nur sochishiga yordam beraylik. Bolalarning qalbi ilk boshlang'ich davri ekin ekishga hozirlab qo'yilgan dala kabitidir. Biz pedagoglar unga nima eksak,nima sochsak o'sadi,bir kuni ekinimizning hosilini o'rishimizga to'g'ri keladi.O'ylab ko'raylik-chi,qaysi ota-onsa yangi dunyoga kelgan chaqalog'ini olib,zavq-shavq bilan bag'riga bosib,uni to'g'ri ,noqobil bo'lib voyaga yetishishini orzu qiladi. Yo'q ,bunday ota-onsa topilmaydi. Insonlarning yaxshi orzulari yoniga yana tarbiya deb atalmish mashaqqatli mehnat ham jo'r bo'lishi kerak! Ta'limi tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limgan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, hayot falsafasi. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lism-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Buning uchun u darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Hozirgi zamon ta'lism tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek ijobjiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limgan yangi qoidalari bilan tanishtirish natijasida ular quyidagi bilim,ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadilar:

- Pedagogika, metodika,ta'lism texnologiyasining mazmun –mohiyatini tushunish.
- Pedagogik nazariya va amaliyotning o'zaro aloqadorligini bilish .
- fundamental tadqiqot va amaliy tajribalarni o'z faoliyatiga qo'llash .
- o'quv predmeti va aniq mavzuga tegishli zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash
- turli pedagogik vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqqa olish
- mashg'ulotlarni tashabbuskorlik, ijodkorlik ko'rsata olish.
- o'zining shaxsiy uslubiga ega bo'lishi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lism ijodkorligi o'qitishda amaliy faoliyatni hisobga olib tashkil etilsa, u ijodiy natija berishi mumkin.



Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda uning sifat ko'rsatkichlarini ifodalaydigan quyidagi tamoillarga e'tibor berishi muhim;

- Zamonaviylik –ta'lim jarayoniga ilmiy asoslangan ,tajribadan o'tgan didaktik yangiliklar ,metod , vositalar kiritilishi

-Ilmiylik –bu o'qitish maqsad va vazifalarini belgilashda aniqlikka ko'chish.

Demak, ta'lim uchun ziar bo'lgan bu didaktik qoidalarga amal qilinsa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari yuqori samaradorlikka erishishlari tayin bo'ladi, shu bilan birga ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol usullarga doir tajribalar ham yetakchi o'rinn tutishni yoddan chiqarmaslik kerak.

Matematika fani darslarida an'anaviy uslublar ,ya'ni gapirib berish ,tushuntirish ma'ruza qilish ham o'quvchilarning faollashuviga qaratilgan bo'lishi kerak.Umuman, o'qitish usullarini yangi pedagogik texnologiya asosida tanlash katta ahamiyatga ega bo'lib ,ular o'quv materiallarining mazmuni, noananaviyligi, interfaolligi ,yangiligi sinf o'quvchilarining qiziqishi va yetuklik darajasi,savyasi darsdagi ko'rgazmalar va jihozlarning sifati orqali belgilanadi. Shunday qilib, o'quvchilarning har bir matematik mavzuni o'zlashtirishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni boshlang'ich sinf o'qituvchisi puxta tahlil qilib ,ulardan eng samarasini dars uchun alohida tanlab olish kerak. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi vaqtini mumkin qadar kam sarflab,o'quvchilar bilimlarini chuqur o'zlashtirishi,qobilyatlarni rivojlanтирishni ta'minlaydigan usullarni qo'llash samarali hisoblanadi.Shu bois ,qiziqish va uyg'otish vositalaridan biri o'rganolgan mavzuga bog'liq bo'lgan bilimlarning ilmiy ahamiyatini o'quvchilarga kengroq ochib ko'rsatishdir.

Matematika fani darslarida noan'anaviy usullardan foydalanishning samaradorligini qo'llab o'z faoliyatimda kuzatilgan.

Masalan ,2-3-sinflarda masala yechish jarayonini “Ertaklar olamiga sayohat ” mavzusida o'tkazish mumkin.Xattaxtani ertak mavzusida jihozlab,har bir jihozga masalalar va misollar kiritamiz.Bu jihozlar barchani diqqatini tortadi.Bunda o'quvchining masala yechish qobilyati bilan birga uning chiqqonligini va aktyorlik san'atini ham bilish hamda baholash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar mehnatidan foydalanib ham ,ularni darsga jalb etish va qiziqtirish mumkin.Bu usul takrorlash ,masalalar yechish darslariga qo'l keladi.Sotuvchi va xaridor o'yinida o'quvchilar o'zları qo'lida yasab kelgan narsalarni o'zaro ayriboshlaydi.Sotuvchi masalani yechsa ,xaridor narsaga ega bo'ladilar.Bunday o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir

### Darslarda rolli o'yinlardan foydalanish

Nutq orqali maqsadga erishmoqchi bo'lsangiz avvalo o'quvchilarni o'rganish va o'quvchilarni qiziqtirgan narsalar haqida so'zlash, ko'proq she'r yod olib uni vaqt vaqt bilan aytib turish -ravon nutqdir va yana o'ziga xos imidj haqida ham oylashimiz maqsadga muvofiqdir.Ta'limda takomillashtirish va yangilanish davr taqozosidir. Shuning uchun ta'lim yangi usullar ustida muntazam izlanishni talab etadi. O'quv jarayonidagi bir xil qolipdagil darslar o'quvchini zeriktiradi, darslarga e'tiborini susaytiradi, o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmasligiga olib keladi. Darslar ham mazmun, ham sifat jihatdan yuqori saviyada o'tishi uchun turli interfaol usullarni qo'llash mumkin.O'quvchilar **“Qushlarni qutqaramiz”**, **“Yalmog'izning koptogi”**,**“Zumrad adashib qoldi”**,**“Qorqizga yordamingiz kerak”**, **“Afrosiyobdag'i sayohat”**, **“Soy suvi”**kabi rolli o'yinlarga asoslangan darslarni nihoyatda sevishadi.Aslini olganda, bunday qiziqarli darslar bolalarning nafaqat fanlar bo'yicha olgan bilimlarini kengaytirish hamda mustahkamlashga yordam beradi, qolaversa ulardag iinsoniy xislatlarni tarbiyalashda ham muhim o'rinn tutadi.

**“Qushlarni qutqaramiz”** o'yinda bolalar guruhlarga bo'lingan holda matematikadan to'it amalga doir misol va masalalarni to'g'ri yecha olsalargina ovchi to'riga tushgan jonivorlarni ketma-ket qutqarishga tuyassar bo'lishadi.

Musobaqa tarzda tashkil etilgan bu o'zin ularni tabiatni sevishga,boyliklarni asrab-avaylashga,qanotli do'stlarimizni himoya qilishga o'rgatadi.O'zin orqali bolalarga ekologiktarbiya ham beradi.

**“Zumrad adashib qoldi”**,**“Qorqizga yordamingiz kerak”**-o'yinida ham o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarini bahamjihat yakka va guruhlarda bajarishga harakat qilishadi.Bu tarzdagi darslar o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni yanada boyitishga, bolalar orasida do'stona munosabat, hamjihatlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'rmonda adashib qolgan Zumradning yo'lida uchragan to'siqlar :**“G'orning eshidigagi yashirin so'zni topish”**,**“Toshdag'i sirli savollar”****“Daraxtlarning suhbati”**,**“Soydag'i uchrashuv”**,**“Gullar**



**ochildi”** kabi topshiriqlar asosida Zumradga yordam berish lozim.Bu topshiriqlar orqali Zumrad o’z uyiga yaqinlashadi va to’siqlardan o’quvchilar ko’magida o’tib oladi.

Bu kabi o’yinlarni o’qish, ona tili, matematika, tabiatshunoslik, odobnama darslarida mavzuni musathkamlash vaqtida rolli o’yinlar o’quvchilarda bilim, ko’nikma, malaka hosil qiladi.O’quvchilarning qiziqishlari, izlanishlarini oshirish maqsadida ularga turli rag’bat usullaridan foydalanish,misol uchun guruhlarning ishtirokini shakllantirishda “**Gullar guldstasi**”,“**Quyosh kuldii**”,“**Sirli sandiq ochildi**”,“**Savatdagagi gullar**”,“**Qorboboning sovg’asi**”, “**Prezident tabrigi**”,

“**Bahoroyning gullari**”,“**Tashakkurnomalar**” kabi rag’batlarni ota-onalarga olib borsalar, oiladagi, maktabdagi hamkorlik yanada yaxshi samara beradi. Yasalgan tojni kiyib ota-onasiga olib borsa, qo’lidagi tashakkurnoma, Prezident tabrigini o’qib eshitirsa, bolada ham, ota-onada ham mehr,qiziqish oshadi.

Shuningdek, ularni o’zida kattalar va kichiklarga mehribon bo’lishga ham o’rgatadi. Umuman olganda ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligini doimiy ravishda ta’minlash samarali omil bo’la oladi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi ana shu tomonlarni nazaridan chetda qoldirmasligi darkor.

### **Darslarda didaktik materiallardan foydalanish.**

Bolaning o’quv faoliyatini rivojlantirishda turli o’yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o’yin orqali o’z bilimlarini mustahkamlaydilar va chuqur o’zlashtiradilar. Shunga ko’ra ta’lim jarayonida qo’llaniladigan didaktik o’yinlarning o’rni beqiyosdir.Didaktik o’yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi,ta’lim jarayonida o’quvchilar faolligini rivojlantiradi.

Didaktik o’yinlar boshlang’ich sinflarda ta’limning samarali bo’lishiga katta yordam beradi,ya’ni didaktik o’yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi,o’quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. “Cho’qqini zabit et”(Eng baland cho’qqi),”Xatosini top”,”O’z uyingni top”,”O’zgartirilgan jumla”,”Mazmunli gap(hikoya)”,”Raketalar parvozi”,”Bu meniki”,”So’z turkumlari”,”Xotira mashqi”kabi o’yinlar albatta o’z samarasini beradi.

Jumladan: ”Sirli xatlar”.

Muxbir kiyimida bir o’quvchi sinfga kirib keladi.U shunday deydi: “Biz bir qancha sirli xatlar oldik.Bu xatlar ustiga manzil yozilmagan .Unga faqat savol va topshiriqlar yozilgan. Ushbu topshiriqlarni bajargan o’quvchi ushbu „**Tabriknomalar**” ga ega bo’ladi. Ushbu tabriknomalar Qorbobodan, Prezidentimizdan,maktab ma’muriyatidan, **Bahoroynan**, **Bilimdonlar qasridan** ,**Buyuk allomalarimizdan** bo’lishi mumkin.Qog’ozda rag’batlantiruvchi so’zlar yozilgan bo’ladi.O’quvchilar faolligiga ko’ra tabriknomalarini topshirib,ko’rsatuvga taklif etadi.

### **“Qadam-baqadam”**

O’yin o’quvchilarni guruhlarga bo’lib,o’tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash vaqtida o’tkazish mumkin. O’qituvchi uchta guruhdan bittadan o’quvchini chiqarib darslikdagi mavzuga xos topshiriqni beradi.O’quvchilar xona boshidan har bir to’g’ri javobi uchun bir qadam tashlash orqali marraga yetib kelishi kerak .Marra xattaxtadagi rag’bat bo’lib,sehrli so’zlarni aytib yetib kelish kerak.Masalan:Muomala odobidagi sehrli so’zlarni aytish.O’qish,ona tili, odobnama, tabiatshunoslik,matematika fanlarida qo’llash mumkin.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.
2. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”T.1997
3. Abdullayeva Q. va boshqalar 2-sinfda o’qish darslari-T.”O’qituvchi ’,2009 –yil
4. T.G’afforova ,Sh. Nurillayeva ,O.Haydarova “Boshlang’ich sinflar uchun ona tili va o’qishdan didaktik materiallar” Toshkent 2004
5. R.Ishmuhammedov,M.Yuldashev ‘Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar’ Toshkent 2017 –yil 176-bet.



## O’SMIRLIK YOSHIDAGI O’QUVCHILARDA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGNING RO’LI

**Qalandarova Nargiza Xamroyevana**

Xorazm viloyati Xozarasp tumani  
2-son maktab amaliyotchi psixolog.  
Email:qalandarovnargiza343@gmail.com

**Razzoqova Iroda Jumanazarovana**

Xorazm viloyati Bog’ot tumani  
36-maktab amaliyotchi psixolog.  
Email:irozzoqova@gmail.com

**Annotatsita:** ushu maqolada O’smirlik yoshidagi o’quvchilarda xulq-atvor xususiyatlarning rivojlanishida psixologningro’li qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so’zi:** o’smirlik davri, psixologiya

Xalqimizning milliy g’ururi, milliy ongi,, milliy iftixori, ma’naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o’rgatish mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakkantirish muommosi respublikamizning ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo’yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar yordamida amalga oshiriladi. Psixologiya sohasi keying yillarda anchagina rivojlanib bormoqda. Psixologiya fanining bir qator tarmoqlari, sohalari mavjud. Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega. Yoshpsixologiyasi psixk rivojlanish, shuningdek, o’smirlik, o’spirinlik va yetuklik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o’rganadi.

O’smirlik 10-11-yoshdan 14-15-yoshgacha bo’lgan davrni tashkil etadi. O’smirlik davri bu bolalikan kattalikka o’yish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatdan o’ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va ustozlarga ko’rsatishga harakat qilishadi.

O’smirlik davri, krisiz davr, qiyin davr deb aytaksak yanglishmaymiz. Bu davrda o’smirlar qizg’in tajang, qaysar buyruq berib gaplaydigan insonlarni yomon ko’radigan bo’lishadi. Xuddi kattalar uni tushunmayotgandek tuyuladi. O’smirda katta yoshli odam bo’lishga yoki hech bo’lmaganda katta yoshli odam bo’lib ko’rinishga qiziqish, intilish paydo bo’ladi. O’smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o’zaro mos kelmasligi o’smirlar bilan ota-onalari, o’qituvchilari o’rtasida qarama-qashilklarni keltirib chiqaradi. Bu davrda maktab amaliyotchi psixologining vazifasi ota-onalarga, ustozlarga, o’smirlik davri qiyinchiliklari, krisizlari, attaraksiya tuyg’ularining namoyon bo’lishi haqida profilaktik suhbatlar, psixologik maslahatlar berib borishi lozim. Birgina noto’g’ri so’zimiz ham o’smir o’z joniga qasd qilishi mumkinligi haqida ham maslahatlar berib boorish lozim. Bu borada psixologning ro’li katta bo’ladi. Bola bilan bolalarcha muloqatda bo’lib uni tushunib, sirlashib to’g’ri yo’l korsatadigan inson bu psixolog hisoblanadi. O’smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba’zan o’zlarining kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo’ladi. Bu o’z navbatida kattalarga qo’pol munosabatda bo’lish va aggressivlikni hamda ota-onalar bilan o’qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

O’smirlik Yoshi dunyokarash, e’tikod, prinsip, o’zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O’smir ulg’aygan sari unda “Ideal Men”, “Axloqiy Men” va “Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o’zi to’g’risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo’lib qoladi.

O’smir o’z faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari asosida tashkil kila boshlaydi.

O’smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o’tkazgan tadqiqotlardan ko’rinadiki, o’smirlarning ko’pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag’rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma’naviy, ahloqiy tushunchalarini to’g’ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida



barqaror e’tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axlokiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma’lumki, o’smirlik davrida o’smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qizikishlari, qadriyatları yo‘nalishi keskin o‘zgaradi.

O’smir Yoshdagı bolani birinchi galdegı intilishi, u o‘zini endi kichkina bola emas, balki katta bo‘lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o’smir shunday qilishga xaqqi borligiga o‘zini-o‘zi ishontiradi, chunki men endi “katta bo‘lib qoldim” deb o‘ylaydi. Shuning uchun xam psixologlar “katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi”ni shaxsning o’smirlik Yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O’qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O’qituvchi, 1997 y. -272 b.
3. Sh.A.Do’stmuhamedov,Z.T.Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
- 4.S.N.Alimxo’jayeva,F.I.Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## BOLANI BILIM OLİSHGA RUHLANTIRING

**Qalandarova Nargiza Xamroyevana**

Xorazm viloyati Xozarasp tumani

2-son maktab amaliyotchi psixologи.

Email:qalandarovnargiza343@gmail.com

**Razzoqova Iroda Jumanazarovana**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

36-maktab amaliyotchi psixologи.

Email:irozzoqova@gmail.com

**Annotatsita:** ushbu maqolada bolani bilim olishga ruhlantirish qanday maqsadlar qo'yish kerakligi va ularni yechimlari qolaversa bu borada psixologning ro'li qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Siz farzandingizni maktabda o'qishini yaxshilamoqchisiz bunga faqatgina uyga vazifalarini majburlab bajartirib erishib bo'lmaydi. Bola ta'limni har yerda olishi mumkin, bu ota-onaga bog'liq. Muhimi siz farzandingiz uchun vaqt ajratib, ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bering. Farzandingiz xarakter va qiziqishlarini hisobga olgan holda u bilan suxbatlashib, bilim olishga qiziqishini ruhlantiring.

Tarbiyada shunday fikr bor: Aqli ota-onasiga matematikani o'rgatadi dono ota-onalar esa bolasiga nima kerak bo'lsa shuni o'rgatadi. Agar farzandingizni bilim olishga ruhlantira olsangiz uning maktabdagagi o'qishi o'z-o'zidan yaxshilanib ketadi. SHunday maslahatlarni quyida beramiz.

### 1. Birgalikda kitob o'qish!

Kitob do'koniga boring va kitobni bolangiz tanlasin albatta siz uning yoshiga dunyoqarashiga mos kitoblar peshtaxtasini ko'rsatasiz va nima uchun shu kitobni tanlaganini so'rang. SHU kitobni o'qisang bilimli bo'lib ketasan, maktabdagagi o'qishing zo'r bo'ladi degan gaplarni aytmang! SHunchaki kitob qiziqligini aytib siz va farzandingiz kitobni alohida o'qing. Har kuni bir xil vaqtida!!! Bir kun qoldirsangiz u soviydi butun umrga!!! Kitobni o'qib menga aytib ber tushunganingni degan gaplar yaramaydi. O'zingiz ham kitobni o'qib kerakli joylaridan savollar bering, fikr almashing.

### 2. Maqsadli o'yinlarni tashkil qiling.

Bolalar ta'limni o'yin orqali o'zlarini bilmagan holda o'zlashtirishadi. Bolalar bilan tasavvurni va ijodkorlikni ishga solib o'ynash lozim. Qasr yasadingizmi qasr haqida gapiring, masalan Vatanimizdagi tarixiy qadamjolar yoki butun dunyodagi boshqa joylarni ta'riflab aytib bering. Bundan tashqari qasr ichidagi shox va malika. YOki ko'priklar va ko'prik ostidagi daryolar. Asosiysi o'yin jarayonida siz ma'lumot berishni kanda qilmang. Bolangizni dunyoqarashi o'sadi. SHaxrisabzdagi Oqsaroy Agradagi Tojmahal haqida ma'lumot bering Tojmahalni bizning ajdodlarimiz qurdirgan deng rasmini ko'rsating Xullas yozaman, aytaman desa ma'lumot ko'p.

### 3. Farzandingizni tabiatga olib chiqing.

Farzandingizning e'tiborini fizika, biologiya, kimyoga qaratish uchun uni tabiat bilan oshno qiling. Agar u koptok o'ynasa koptochning fizik xossasini aytинг(Masalan Nyuton qonuni: Bir jismga boshqa bir jism ta'sir etmaguncha u o'z harakatini o'zgartirmaydi. Bir kun bolangiz katta sinfga o'tib, maktabda fizika darsi o'tilsa shunaqangi qiziqadiki o'ziyam fizik olim bo'lib etishadi). YOki o'simliklarni o'rganing kerak bo'lsa lupa olib chiqing, ma'lumotlarni bering o'simliklar haqida. Biror notanish o'simlik topib olsa o'zicha nom qo'yisin mayliga hammasi bolaga ta'lim olishda va bilimni sevishda katta turtki bo'ladi.

### 4. Bolangiz bilan o'qishi haqida suhbatlapping

Bolangizdan bugun maktabingda nima qilding yoki nimani o'tdingiz deng! U esa hech narsa deb javob beradi. Boshqa nima kutgandingiz!!! Bir kunda 6 soat darsdan qaysi birini aytishni bilmay hech narsa deb qo'yadi. Siz aynan qaysi darsligini so'rang Qaysi mavzularni o'tayotganini biling va savolni to'g'ri bering. Haqiqiy e'tibor mana shu bo'ladi. O'qishdan kelishi bilan qorning ochib qoldi, charchading, ovqatlanib uxla deyish ham yaxshi ammo zo'r emasdaaa.

### 5. Bolangizda shaxsiy tajriba hosil qiling!

Hech qachon o'z qiziqishlaringizni agar farzand xoxlamasa uni majburlamang. Aksincha uning o'z qiziqishlarini yuzaga keltira olishini ruhlantiring. Agar farzandingiz men katta bo'lsam



shifokor bo‘laman yoki yurist bo‘laman yoki uchuvchi bo‘laman yoki boshqa kasbni aytsa ham, siz uni qo‘llab-quvvatlashingizni aytинг. Yaqin atrofingizdagi farzandingiz tanigan kasb egalari haqida gaplasting. Kasb to‘g‘risida suxbatlasting. Hech qachon bolangizga shart qo‘ymang va majburlamang. Uning fikrlarini hurmat qilib tinglang noto‘g‘ri fikr yuritayotgan bo‘lsa, hayotiy misollar bilan to‘g‘ri tushuntiring va uni ruhlantiring.

Agar farzandingiz maktabga borgisi kelmayotgan bo‘lsa uning o‘qishga nisbatan maktabga nisbatan fundamenti yo‘q. Maqsadini yo‘qotib qo‘yyapti, ko‘pchilik hollarda ota - onalar hattoki. Agar uning maktabga qiziqishini qaytishini va yangi bilimlar olishini xohlasangiz unga ta’limning (O‘qishning emas, maktabdan bergen kitoblaridan emas) barcha turini oz–ozdan ko‘rsatib, o‘rgatib turing. Ta’limga bo‘lgan muhabbati qaytguncha siz ham ancha sabr qilishingiz kerak bo‘ladi. Cheklov va shartlar bilan emas, farzandingizni qiziqishlarini hisobga olgan holda bilim olish uchun ruhlantiring.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O’qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O’qituvchi, 1997 y. -272 b.
- 3.Sh.A.Do’stmuhammedov,Z.T.Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
- 4.S.N.Alimxo’jayeva,F.I.Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI SAMARALI O'QITISH

Xudjamkulova Shaxnoza Mamatqobilovna

Surxondaryo viloyati Termiz tumani  
boslang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada boslang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni samarali o'qitish, boslang'ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish usullari va metodlarining juda muhim boyligi, kompetensiyaviy yondashuv asosida boslang'ich sinflarda darslarni pedagogik mexanizmlarni tashkil qilish, boshqarish, sifat va samaradorligini doimiy takomillashtirish haqida bat afsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boslang'ich sinf, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mexanizm, kompetentlik.

### Kirish:

Kommunikativ axborot tizimining kun sayin ortib, ma'lumotlarning jadallik bilan oshib borayotgani, ulardan ta'lif-tarbiya vaqtida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, o'sib kelayotgan avlodni hayotga har taraflama mukammal tayyorlash talab-ehtiyojlari, ayni vaqtda, jamiyatni ijtimoiy takomillashtirishning ilmiy asoslangan, istiqbolli rejasini ishlab chiqish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish o'quv tizimiga yuqori pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo qiladi. Mamalakatimizning taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rinn olishi uchun aholi ta'lmini rivojlanadirish va uning samaradorligini jadallashtirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirdardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan vaqtarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil shakllanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Boslang'ich sinflarda darslarni kompetensiyaviy yondashuv yordamida o'qitish mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish borasida integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, asosiy ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida foydalana olishni taqozo etadi.

### Natijalar:

Boslang'ich sinflarda darslarda kompetensiyaviy yondashuv yordamida o'qitish usullari va metodlarining juda asosiy boyligi jamlangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarining yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar nazarga tutiladi. Darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida metod va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilinishi belgilangan masalaga bog'liq bo'ladi. Binobarin, yangi materialni bayon qilishda bir xil metodlar foydalanilsa, uni mustahkamlashda va mohiyatini umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Zotan, har bir o'qitishning ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limi ishlarini faollashtirishdir. Boslang'ich ta'lif tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy qilish ham asosiy omil hisoblanadi. Bunda ta'lif sifati ortadi. Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni vaqtida o'quvchilarni zamonaviy madaniyatga oshno qilish sifati bo'lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida jiddiy dolzarblik kasb qiladi.

### Muhokama:

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boslang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda pedagogik mexanizmlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini doimiy takomillashtirishda o'qituvchilarining faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil qilish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga, shuningdek ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari, shuningdek, qobiliyatlar, mahorati va kasbiy tajribasiga uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, boslang'ich sinflarda darslarni samarali o'qitishda mavzular mohiyatini yoritishda



animatsiyalardan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning keng imkoniyatlari orqali boshlang‘ich o‘quvchilarda ijodkorlik, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish, garmonik rivojlanishi, fantaziyasini boyitish, badiiy did va estetik mahoratni rivojlanishi, diqqat va tasavvurni aktivlashtirish, rang tasvir uyg‘unligini anglash, ajratish kabi jarayonlarni shakllantirishga erishish mumkin.

**Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda darslarni samarali o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi afzallikkarga ega bo‘ladi: ta’lim jarayonining doirasi kengayadi, uning amaliy yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlaydi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishdagi motivatsiyasini oshiradi, shaxsni muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoit yaratadi, fanga bog‘liqlikni takomillashtiradi va kuchaytiradi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning mustaqilligini shakllantiradi, mavzu bo‘yicha bilim sifatini oshiradi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” journali. 2005.
2. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P «BoshLang‘ich sinfiarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o‘quv-metodik qo’llanma 2009.
3. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Sariyev Sh. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda qiziqishlarni o‘rganish. T., TDPU. 2008.



## FEATURES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN TECHNICAL COLLEGES AND VOCATIONAL SCHOOLS

**Shakhida Yusupova**

Assistant professor,

Bukhara Engineering-Technological Institute

**Khayrieva Ma'mura,**

teacher Peshku professional/vocational school №1

**ABSTRACT:** The article deals with the features of teaching a foreign language in a vocational school. It is focused on reading technical literature, on studying special terminology and vocabulary, as well as on communication in the field of professional activity.

**KEY WORDS:** vocational school, implementation, teaching, foreign language, professional terminology, communication, conversation, specialists.

Nowadays, special attention is paid to the fact that the study of a foreign language in secondary vocational and higher educational institutions takes into account professional specificity and focus on the implementation of the tasks of future professional activity of students.

As a result, a professionally oriented approach is of particular relevance in teaching a foreign language in a technical college and vocational school. This type of training is based on taking into account the needs of students in learning a foreign language, which are dictated by the characteristics of the future profession. The process of learning a foreign language in a non-linguistic educational institution is focused on reading literature in the specialty, communication in the field of professional activity, studying professional terminology and vocabulary. The training of specialists in technical educational institutions consists in the formation of students' communicative skills that allow them to carry out professional communication in a foreign language in various fields and situations. The sphere of communication is understood as a set of homogeneous situations that are characterized by fairly similar speech stimuli, relationships between the participants in the conversation, and the environment of communication. Communication in a foreign language can take place both in informal and official forms, during group and individual contacts.

The goal of teaching a foreign language in technical colleges and vocational schools is to achieve a certain level of knowledge by students, which will be sufficient for the practical use of a foreign language in their future professional activities. Previously, representatives of technical specialties did not communicate in a foreign language, and contacts with foreign firms were limited. The teaching of a foreign language to students of technical colleges and vocational schools included only the translation of texts of technical content. However, nowadays more and more attention in technical colleges is paid to the formation of students' communicative literacy, culture of speech, knowledge of the rules of communication and the ability to apply them in a particular situation.

This is due to the fact that more and more in the professional activities of a technical orientation, contact is made with foreign specialists. The study of technical disciplines is associated with the study of technical English, which is specific. It has many features and its own formal-logical way of presentation. The technical text contains a large number of technical terms. Before you start translating such texts, you need to purchase specialized technical dictionaries.

A foreign language in technical colleges and vocational schools is studied taking into account the profile of the received professional education. The Exemplary Foreign Language Program aims to achieve the following goals:

further development of communicative foreign language competence (language, speech, sociocultural, educational, cognitive, compensatory);

development of readiness and ability for further independent study of a foreign language and self-education with its help, self-determination in a future profession, the ability for self-esteem through observation of one's own speech in a foreign and native languages, social adaptation.

The main structural feature of the content of training in a technical college is its division into two types: the main one, which is mastered by all students, regardless of the profile of secondary vocational education, and the professionally oriented type. According to the first type, the content is aimed at improving the skills and abilities formed at school. In the process of mastering a professionally oriented type, the language is studied taking into account the profile of vocational



education. The main components of the content of teaching a foreign language in technical colleges are: speech material, specialized technical texts; linguistic (lexical, phonetic and grammatical) material; knowledge, skills and abilities that make up the foreign language communicative competence of students.

The organization of the content of training is carried out in accordance with the functional-content approach implemented in the communicative method of teaching a foreign language, which implies a functional, rather than a systemic organization of the studied material, corresponding to speech functions. With this approach, special attention is paid not to the form of the linguistic phenomenon, but to its meaning.

The content of the program should take into account that teaching a foreign language in technical colleges and vocational schools does not take place in a language environment, so preference should be given to the material that creates a natural speech situation of communication and carries a cognitive load. The program is focused on the features of the social, cultural, political and scientific reality of the modern world. Attention is drawn to the role played by a foreign language in the modern world as a language of intercultural and international communication.

Thus, the peculiarities of teaching a foreign language in technical colleges are determined by the predominance of a professionally oriented approach, which is aimed at developing students' professional skills in a foreign language.

#### **REFERENCES:**

1. Yusupova, S. (2019). Technical thinking in English classes as a psychological and methodological problem. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(9).
2. Yusupova, S. (2020). Improvement of students' technical thinking development technologies at english classes. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1472-1478.



## ЎҚИТУВЧИННИГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ

Абдуллаева Шоҳидахон Давронбековна

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги  
Тошкент ахборот технологиялари университети  
Урганч филиали “Гуманитар ва ижтимоий фанлар”  
кафедраси доценти, ф.ф.н Телефон:+998914340082

**Аннотация:** Мазкур мақолада таълим мақсади, мазмуни, шакл, услуга ва воситалари таълим жараёнлари мазмунини таҳлил қилиш учун кўлланиладиган анъанавий категориялар, айнан шу категориялар маълум предмет, мутахассислик ёки ихтисослик бўйича ўқувтарбиявий жараённи ташкил қилувчи педагог фаолиятининг предмети сифатида юзага чиқишига эътибор қаратилиши кўрсатиб ўтилган.

**Kalit so’zlar:** ўқитиш технологияси, таълим жараёни, замонавий таълим, дидактик жараён, муаммоли ўқитиш, модул таълими, ривожлантирувчи таълим.

Педагогик маҳорат - таълим ва тарбия санъати. Бу ўқувчининг дунёқараси ва қобилиятини ҳар томонлама камол топтиришга барча турдаги ўқувтарбиявий ишларни йўналтира оладиган касбий қобилиятдир.

Педагогик маҳоратнинг асосини касбий билим (ўқитувчи шахсининг касбий-педагогик йўналиши, касбий аҳамиятли билим) ташкил этади. Ўқитувчининг билими, бир томондан, у ўргатган фанга, иккинчи томондан, ўқувчиларга қаратилган. Касбий билимларнинг мазмуни - бу фан, унинг методологияси, шунингдек, педагогика ва психология ҳақидаги билимлар.

Касбий педагогик билимларнинг муҳим асоси мураккаблик ва интеграциядир. Бу энг аввало ўқитувчининг ўрганилаётган фанларни синтез қилиш қобилиятидир. Синтезнинг ўзагини педагогик муаммоларни ҳал қилиш, ҳодисаларнинг психологик моҳиятини тушунишни талаб қиласиган педагогик вазиятларни таҳлил қилиш, шахс шаклланишининг маълум қонуниятлари асосида ўзаро таъсир қилиш усусларини танлаш ташкил этади. Ҳар бир педагогик вазифани ҳал қилиш ўқитувчининг бутун педагогик билим тизимини долзарблаштиради, бу ўзини бир бутун сифатида намоён қиласи.

Мураккаблик, умумлаштириш билан бир қаторда, уста ўқитувчининг касбий билими ҳам индивидуал иш услуби (касбий ижод) каби муҳим таркибий қисм билан тавсифланади.

Педагогик маҳорат асосининг яна бир таркибий қисми - ўқитувчининг хулқ-авторини ташкил этиш шакли (касбий зарур қобилият, кўнинма ва малакалар). Кўнинмасиз, ҳаракат усусларини ўзлаштирасдан билим, йўналиш ва қобилиятлар, яъни, педагогик техника, мумкин эмас. Уларсиз ўқитувчи фаолиятининг юксак натижаларини тасаввур қилиб бўлмайди. Бундан ташқари, педагогик техника педагогик маҳоратнинг ҳам асоси бўлиб, таълим ва тарбиянинг кўлланиладиган тамойиллари, воситалари ва усуслари самараорлигини оширадиган усул ва усуслар мажмуидир.

